

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI BITIRUVCHISI

SHAXS OTLARINING TURLARI VA QO'LLANISHI
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi:

SAYFULLAYEVA XURSHIDANING
4-kurs talabasi D.X.Narziyev

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____sonli bayonnamasi “_____” _____ 2012-yil

NAVOIY – 2012 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-8
1 - BOB. SHAXS OTLARINING TURLARI VA QO'LLANISHI	
.....	9-25
1.1. Yakka va guruh shaxs nomlari.....	9-16
1.2. Jinsiy farqlanuvchi shaxs nomlari.....	16-22
1.3. Shaxs nomlarining qo'llanish doirasi.....	22-25
2 - BOB. SHAXS OTLARINING TARKIBIY TUZILISHIGA KO'RA	
TURLARI.....	26-37
UMUMIY XULOSALAR	38-39
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	40-41

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Jamiyat hamda fan-texnika taraqqiyoti bilan birgalikada boshqa sohalar ham uzviy ravishda rivojlanishda davom etadi. Har qanday tilning taraqqiyoti o'sha jamiyatning, uning egasi bo'lgan millatning rivoji bilan uzviy bog'liqdir. Mamlakatimizda yuz bergan istiqlol o'zbek tilini chinakam ma'naviyat namunasiga aylantirdi. Buni birgina lug'atshunoslik taraqqiyoti, tilimizda turli sohaga oid lug'atlarlar tizimining vujudga kelganligi bilan ham izohlash mumkin.

“Bugungi yangi o'zbek davlatini barpo etar ekanmiz, - degan edi I.A.Karimov, - biz tarixdan, ajdodlar merosidan, ularning ruhi pokidan, Turkiston xalqlarining qadriyatlaridan bahramand bo'lishimiz tabiiydir”¹. Darhaqiqat, keyingi yillarda mamlakatimizda O'zbekiston davlatchiligi rivojining boy tarixiy va ma'naviy merosiga tayanib, har bir soha jadallik bilan taraqqiy etib bormoqda. Shu jumladan tilshunoslik sohasida ham qator yangiliklar, turli xil tarmoqlari asosida o'sish ko'zga tashlanmoqda. Har bir fan o'z oldiga muayyan maqsad va aniq talablar qo'yadi. Turli fanlarning manbalari ko'p qirrali bo'lganligi sababli davrning yetakchi falsafiy fikri aniq fanlardan o'rganish manbaning qaysi tomonlariga alohida e'tibot berish lozimligini, borliqdagi mavjud qonuniyatlarni mantiqiy kategoriyalarda qay usulda aks ettirish yo'llarini belgilab beradi. Jamiyatimizning yangi-mustaqil taraqqiyot bosqichiga o'tishi bilan ona tilimizning ham barcha sohalar singari keng quloch yoyib rivojlanishi, o'zining boy imkoniyatlarini namoyon qilishi uchun zamin yaratdi. Shu bilan birga, tilimiz boyligini, nutqiy ifoda vositalarining rang-barangligini ko'rsatib beruvchi qator ilmiy tadqiqotlar, ommabop lug'atlar yaratish zarurligi masalasini ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. – Toshkent.: O'zbekiston, 1994. 129-bet.

O'zbek tili nutqiy vositalarga boy tillardan biridir. Tilning turli qirralarini uzviy tarzda birlashtirib, uni yaxlit bir butunlik, bir sistema sifatida o'rganuvchi tilshunoslik asrimizning 20-yillarida shakllandi va system-struktur tilshunoslik nomi bilan mashhur bo'ldi. Shuni aytib o'tish kerakki, Ferdinand de Sossyur asos solgan XX asr system tilshunosligi bag'rida o'nlab yangi lingvistik oqim va maktablar vujudga keldi, ularda ulkan zamonaviy yutuqlar qo'lga kiritildi. Tilshunoslik sohasining qator tarmoqlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar hamda yangiliklar shu soha vakillarini yanada chuqurroq izlanishga da'vat etmoqda.

O'zbek tilining o'ziga xos jihatlarini tadqiq qilish, fonetika, leksikologiya, grammatika, uslubshunoslik sathlari doirasida keng qamrovli tadqiqotlar olib borish, o'zbek tili birliklarining nutqda qo'llanish imkoniyatlarini o'rganish, leksikografiya sohasida qilinayotgan ishlar, fanimiz taraqqiyotini yanada yuksaklarga ko'tardi.

Tilshunoslik fani til bo'yicha tadqiqot ishlari olib borganda, boshqa fan materiallarini ham hisobga oladi. Garchi tilshunoslik fani ijtimoiy fan bo'lsa-da, fizika, kimyo, kibernetika, matematika, fiziologiya kabi tabiiy fanlar bilan ham bog'liq holda rivojlanadi.

Biz ushbu kichik tadqiqotimizda tilshunoslik fanining leksikografik sathi bilan bog'lab yoritishga harakat qildik. Bilamizki, yurtimizda leksikografik ishlar keyingi yillarda keng ko'lamda rivojlandi. «O'zbek tilining ko'p jildli izohli lug'ati» avval, 1981-yilda nashr etilgan ikki jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati»ning bevosita davomchisi bo'lsa-da, undan farqli ravishda, bu lug'atda birinchi navbatda hozirgi tilimizda iste'molda bo'lgan barcha so'z va so'z birikmalari (sheva so'zlari va terminlar qisman), frazeologizmlar hamda ularning barcha ma'nolarini mumkin qadar kengroq ko'rsatishga ahamiyat berildi; lug'atning xronologik chegarasi XX asrning boshlaridan hozirgi kungacha bo'lgan davrni qamrab olsa-da, unda hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlariga mos keladigan, o'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari asarlarida uchraydigan, lekin hozirgacha o'z shakl va ma'nolarini saqlab qolgan lug'aviy birliklar ham aks ettirildi. Tuzilgan izohli lug'at 360-380 bosma taboqdan iborat bo'lib, 5 jildga

bo'linadi; unda hozirgi o'zbek tilida keng qo'llanadigan 80 mingdan ziyod so'z va so'z birikmalari izoh va illyustratsiyalar bilan ta'minlanadi; shuningdek, respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyingi yillarda iste'molga kirgan turli fan sohalariga oid asosiy so'z-terminlar, neologizmlar, sheva va folklorga xos ayrim so'z va iboralar, o'tmish madaniy yodgorliklarimizda uchraydigan diniy-falsafiy atamalar ham alohida o'rin egallagan.

Quyida biz shaxs otlarining lug'atlarda berilishiga e'tibor qaratdik. Shaxs otlari o'zbek tilshunosligida nomzodlik dissertatsiyasi doirasida o'rganilgan bo'lsa-da, mazkur soha bilan bog'liq masalalar ko'lami shunchalik kengki, hali bu borada yana bir necha nomzodlik dissertatsiyalari yozilishi mumkin. Yangi izohli lug'atning yaratilishi shaxs otlarning leksikografik talqinini oydinlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ular o'zbek tilshunosligida navbatdagi muhim vazifalardan biri sifatida dolzarbligicha qolmoqda. Keltirib o'tilgan mulohazalar ushbu bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini tashkil etadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Ikki jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati» nashr etilgandan keyin o'tgan davr ichida respublikamiz siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar, xususan mamlakatimizning mustaqillikka erishuvi, til siyosatidagi yangiliklar, «Davlat tili haqida»gi qonunning qabul qilinishi, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi natijasida uning to'laqonli rivojlanishiga keng yo'l ochilishi, qolaversa, yangicha iqtisodiy munosabatlar, jahonning ko'plab ilg'or mamlakatlari bilan iqtisodiy, ilmiy, madaniy aloqalar o'zbek tili va uning leksikasi rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. O'zbek tili lug'at tarkibidagi bunday jiddiy o'zgarishlar davr talabiga javob beradigan, yangi izohli lug'at yaratish zaruriyatini keltirib chiqardi:

- hozirgi o'zbek tilida umumiste'molda bo'lgan, asosan adabiy tilga xos 80000 dan iborat so'z va so'z birikmalarini lug'atga kiritildi, izohlash va illyustratsiyalar bilan ta'minlandi;

- hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlariga mos keladigan, o'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari asarlarida uchraydigan, lekin hozirgacha o'z shakl va

ma'nolarini saqlab qolgan so'z va birikmalar aniqlandi, lug'atga kiritildi va izohlandi;

- respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyingi davrda iste'molga kirgan, turli fan sohalari va ijtimoiy hayotga oid asosiy so'z-terminlarni, neologizmlar aniqlandi, lug'atga kiritildi va izohlandi;

- avvalgi ikki jildli izohli lug'atda «eskirgan», «kitobiy», «diniy» degan belgilar qo'yilgan, lekin hozirgi kunda faol qo'llanayotgan so'z va iboralar lug'atda aks ettirildi, ular yangicha nuqtai nazardan izohlandi;

- adabiy til doirasidagi so'zlar bilan bir qatorda shevaga, folklorga oid so'z va iboralar, etnografizmlar, tarixiy so'zlar (istorizmlar)ni lug'atga kiritildi, ular hozirgi sharoit nuqtai nazaridan izohlandi.

O'zbek tilshunosligida yangi izohli lug'atning E.Begmatov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, T.Mirzayev, N.To'xliyev, E.Umarov, A.Hojiyev D.Xudayberganova kabi olimlarning xizmati kattadir. Tilimizning lug'aviy tizimida salmoqli o'rin egallovchi shaxs otlarining leksikografik talqinini yangi izohli lug'at asosida o'rganish zaruriyati tug'ildi.

Biz mazkur bitiruv malakaviy ishimizda shaxs otlarining tuzilishi, qo'llanish doirasi, til leksikasida tutgan o'rni haqida so'z yuritamiz. Shuningdek, ushbu otlarning ma'no qirralari, termin sifatidagi o'rni, o'z va o'zlashgan qatlam doirasidagi ahamiyatini, lug'atlardagi ma'no darajasini tahlil etdik. Bu holatlar mazkur bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishimiz o'zbek tilshunosligida shaxs otlarining o'rni, shaxslarni ifodalovchi bunday so'zlarning yasalishi, tarkibiy tuzilishi, ma'noviy tuzilishi, frazemalarda aks etishini belgilash va bu masalalarni yoritishdan iborat. Bu masalalarni yoritishda bir qancha vazifalarni bajarish talab etiladi:

- shaxs nomlarining turlari va qo'llanishini aniqlash;
- yakka va guruh shaxs nomlarining lug'atlarda berilishini aniqlash;
- jinsiy farqlanuvchi shaxs nomlarini tahlil qilish;
- shaxs nomlarining qo'llanish doirasini belgilash;

- shaxs nomlarining tarkibiy tuzilishiga ko'ra turlarini o'rganish;
- sodda va juft shaxs nomlarini aniqlash;
- birikmali shaxs nomlarini tahlil qilish;
- shaxs nomlarining sinonimiyasini lug'atlar asosida o'rganish;
- shaxs nomlarining variantdorligini belgilash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ushbu bitiruv malakaviy ishida shaxsga oid ma'nolarni anglatuvchi so'zlarning o'rganilishi, lug'atlarda, o'quv qo'llanmalari, darsliklari, ilmiy maqolalar, ilmiy ishlardagi talqini va o'rganilish darajasi aniqlandi;

- shaxs nomlarining turlari va qo'llanishi aniqlandi;
- yakka va guruh shaxs nomlarining lug'atlarda berilishi aniqlandi;
- jinsiy farqlanuvchi shaxs nomlari tahlil qilindi;
- shaxs nomlarining qo'llanish doirasi belgilandi;
- shaxs nomlarining tarkibiy tuzilishiga ko'ra turlari o'rganildi;
- sodda va juft shaxs nomlari aniqlandi;
- birikmali shaxs nomlari tahlil qilindi;
- shaxs nomlarining sinonimiyasi lug'atlar asosida o'rganildi;
- shaxs nomlarining variantdorligi belgilandi.
- badiiy asar tilida, lug'atlarda shaxs ma'nosini anglatuvchi so'zlarning jinsga ko'ra berilishidagi farq va o'xshashliklar tahlil etildi;
- o'z va o'zlashma so'zlar asosida shakllangan shaxs otlari o'rganib chiqildi;
- shaxs otlarining ayrimlari anglatgan ma'nolar ikki tomlik hamda yangi besh tomlik izohli lug'atlar asosida qiyoslab o'rganildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishining yuqorida qayd qilingan masalalar va ular yuzasidan olingan natija va xulosalar shaxs otlarining lisoniy hamda leksikografik talqini haqidagi mulohazalar bu so'zlarni to'g'ri va aniq tushunishga yordam beradi. Ularga aniqlik kiritadi, shaxs otlari haqida shakllangan nazariy bilimlarni boyitadi.

Bundan tashqari “O`zbek tilining izohli lug`ati”ning yutuqlarini ko`rsatishga turtki bo`ladi.

Tadqiqotning asosiy manbalari. Tadqiqot vazifalari va tahlil uslubi taqozosiga ko`ra ishda quyidagi asosiy manbalarga tayandik:

1.O`zbek tilining izohli lug`ati. 5 tomlik. Toshkent, 2005-2008.

2.O`zbek tilining izohli lug`ati. 2 tomlik. Moskva, 1981.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

1-BOB

SHAXS OTLARINING TURLARI VA QO'LLANISHI

Har bir tilda bo'lganidek, o'zbek tilida ham narsa-predmetlar, voqea-hodisalar birlik-ko'plik qonuniyati asosida (olma – olmazor, tosh - toshloq, uy – uylar kabi) ekan, bu qonuniyat bevosita shaxs nomlariga ham taalluqlidir.

Ona tilimizda ikki va undan ortiq shaxs ma'nosini ro'yobga chiqarish maqsadida ko'plik formasini yasovchilardan foydalanib kelinadi. Masalan: *o'quvchi+lar, sinfdosh+lar, aravaso+lar, otliq+lar* va b. Biroq -lar qo'shimchasining leksema emas, balki forma yasovchi ekanligi hisobga olinsa, bu masalani maxsus o'rganishga hojat qolmas edi. O'zbek tilida qo'llanayotgan jamiki shaxs nomlarini “yakkalik-umumiylik” prinsipidan kelib chiqib o'rganish mumkin degan xulosaga kelindi:

1. Yakka shaxs nomlari.
2. Guruhiy shaxs nomlari.

Yakka shaxs nomlari faqat “bir kishi” semasiga ega bo'lib, -lar affiksini olganda ko'plikni ifodalaydi: *kitobxon+lar, ijodkor-lar, ishqiboz+lar* va b.

Quyidagilar yakka shaxs otlaridir: *oshiq, g'olib, adabiyotshunos, olim, navoiyshunos, bola, so'zlashuvchi, tennischi, o'rinbosar, mudir, hokim, prezident, rais, realist, biznesmen, janob, javobgar, fuqaro, shifokor, fermer, binokor, nogiron* kabilar. Ayrimlarining izohli lug'atdagi ma'nolariga diqqat qaratamiz:

Kimyogar –kimyo bilan shug'ullanuvchi; kimyo fani bo'yicha mutaxassis, olim; kimyo sanoatida ishlovchi shaxs”², o'zbek tilining ichki imkoniyati asosida arabcha so'z+forscha affiksdan yasalgan.

² O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. –T.: O'zME, 2007. 366-b.

2 O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. –T.: O'zME, 2007. 63-b.

Notiq – “arabcha so’zlovchi, gapiruvchi; fikrlovchi, diktor; nutq so’zlovchi; gapga chechan, gapga usta, so’zamol”³ ma’nosida.

“O’zbek tilining izohli lug’ati”da o’z ifodasini topgan shaxs nomlari izohlari standartlashtirilgan, bunda o’zbek tilining avvalgi izohli lug’atidagi kamchiliklar ochiq-oydin ko’zga tashlanadi. O’zbek tilining izohli lug’atida o’z ifodasini topgan barcha leksemalar, jumladan, shaxs nomlari mikrosistemasiga kirgan lug’aviy birliklarning izohlariga e’tibor berilganda, ularni ikki qismga ajratish ayon bo’ldi. Ularning birinchisida tom ma’nodagi predmetning mazasi, shakli, hajmi, xossasi, rang - tusi, vazifasi kabi xususiyatlari haqida, shaxsning esa kasb - kori, mansabi va unvoni, qarindoshligi, shug’ullanadigan sohasi, jismoniy yohud psixik holati singari omillar (masalan 1.“Badiiy asar yozish bilan shug’ullanadigan...” – yozuvchi leksemasi izohida; hozirgi izohli lug’atda “Badiiy asar yozish ishi bilan shug’ullanadigan shaxs; adib” yoki “ig’vogar, oraga nifoq soluvchi” ma’nosida⁴.

2. Kasal - “organizmning normal holati buzilgan...” Leksemasining izohi yangi lug’atda olti ko’rinishda izohlangani xususida axborot beriladi.(O’zbek tilining izohli lug’ati. 2-jild. –T.: O’zME, 2007. 327-b.)

Yana bir dalilga e’tiborni jalb etmoqchimiz. Ikki tomli o’zbek tilining izohli lug’atidagi shaxs nomlarining izohlariga e’tibor berilganda, shaxs nomlari izohining “aniqlanmish komponenti”da “kishi”, “shaxs”, “mutaxassis”, “vrach”, “olim” kabi leksemalar ishlatilgan. Shaxslarni anglatuvchi boshqa-boshqa nomlarga murojaat qilinganda esa bulardan tashqari, yana quyidagi leksemalardan foydalanilgan: *odam* (paysalchi, palovxo’r, pashshaxo’rda, banda, barzangi, shakkok, shashkachi, sherzod, fatalist kabi nomlar izohida), *kimsa* (panogoh, bazmchi kabi leksemalar izohida), *xizmatchi* (ofitser leksemasi izohida), *boshliq* (komandir, komendant singarilar sharhida), *usta* (parmakash lug’aviy birligi izohida), *mansabdor* (bakovul leksemasi ta’rifida), *a’zo* (partizan leksemasi izohida). Keltirilganlardan shaxs nomlarining aniqlanmish komponenti, ya’ni semasida qariyb o’n besh xil leksemadan foydalanilganligi ayon bo’ladi.

⁴ O’zbek tilining izohli lug’ati. 2-jild. –T.: O’zME, 2007. 29-b.

Nihoyat, avvalgi o'zbek tilining izohli lug'atida shunday shaxs nomlari joy olganki, ularning aniqlanmish komponentida ko'rsatib o'tilgan leksemalarning borortasi ham ishlatilmagan (vaholangki, mantiqan ularning birontasi asos qilib olinishi kerak edi) holatlar ham bir talay ekanligini ta'kidlab o'tamiz. *Baletchi, baliqfurush, baloxo'r, bandit, bankir, barabanchi, basir, bayanchi, pamfletchi, parvonachi, paxsakash, paxsachi, paxtakor, fazogir, faqir, fidokor* kabi shaxs nomlari izohida ayni shunday yo'l tutilgan. Yoki:

Tilshunos tilshunoslik mutaxassisi⁵ ... (birikma yohud matnli illyustrativ misol). Bu o'rinda guruhlovchi sema sifatida "mutaxassis"likning tanlanishini to'g'ri.

1. *Fonetist* Fonetika fanining mutaxassisi.
2. *Folklorist* Folkloristika sohasining mutaxassisi.
3. *Lingvist*⁶ Lingvistika mutaxassisi.
4. *Tilshunos* Tilshunoslik bo'yicha mutaxassis...

Misollardan ayon bo'lmoqdaki, fonetist izohida "fanning", folklorist, lingvist izohida "sohaning", tilshunos izohida "bo'yicha" kabi so'zlardan foydalanilgan. Qiyos uchun filologiyaning mutaxassislari anglatuvchi shaxs nomlariga ham bir e'tibor beraylik:

Adabiyotshunos Adabiyotshunoslik mutaxassisi; adabiyotchi.

Tilshunos Tilshunoslik bo'yicha mutaxassis, olim; lingvist.

Ko'rinib turibdiki, ayni bir xil leksik semantik guruhga oid shaxs nomlari izohida bir xillik mavjud. Ya'ni, *tilshunos* nomining izohiga "olim" so'zi qo'shilgan va uning olim ekanligi uqtirilgan. *Adiba* adib ayol, yozuvchi ayol.

5 . O'zbek tilining izohli lug'ati. 1. –M: Rus tili, 1981. 512-b.

⁶ Lug'at tuzish prinsiplariga binoan sinonim leksemalarning faqat bittasi, ya'ni eng faol qo'llanayotgan izohlanishi, qolganlari esa unga havola etilishi lozim bo'ladi. Lekin o'zbek tilining ikki tomli izohli lug'atida tilshunos va lingvist leksemalarining izohlanishi, buning ustiga, izohning ikki xilligi shu prinsipga ziddir. Bu kabi chalkashliklar boshqa-boshqa shaxslar nomlari izohida ham mavjudligi qayd etiladi.

Misollardan har ikkala shaxs nomini bir-biri bilan ham ularning oppozitsiyalari (adib - shoir) bilan ham qiyoslaganda adiba leksemasiga nihoyatda “o’gay ko’z” bilan qaralganligini payqash qiyin emas. Chunki, *shoira* leksemasiga “she’riy asarlar yozadigan ayol” tarzida izoh berilgan ekan, nega adibaga nisbatan “adabiy asarlar yozuvchi ayol” qabilidagi izohdan foydalanilsa bo’lmasmidi, degan haqli savol tug’iladi. Keltirilganlar ham izoh aniqlovchi komponentining xilma-xilligini yorqin namoyish etib turibdi:

Shoira she’riy asarlar yozadigan ayol.

Fanlar va ular sohalari hamda tarmoqlarining mutaxassisi bo’lgan shaxslar ma’nosini anglatuvchi quyidagi misollarga ham e’tibor beraylik:

Astronom “astronomiya olimi, mutaxassis”.

Tabiatshunos “tabiatni o’rganuvchi, tekshiruvchi kishi, tibbiyot olimi”.

Filolog “filologiya mutaxassisi”.

Endi tibbiyot sohasi mutaxassislarini anglatuvchi shaxslar nomlarining izohlaridan namunalar keltiramiz:

Urolog “urologiya mutaxassisi, urologiya vrachi”.

Laringolog “tomoq, bo’g’iz kasalliklari mutaxassisi, vrach”.

“Ko’pchilikdan iborat shaxslar” ma’nolarini ifodalash maqsadida quyidagi tarzda yasalgan ba’zi bir leksemalarni misol qilib keltirish mumkin: *Jamoat*⁷ (Yusufbek... *Eski Jo’vada azim bir jamoat yig’ib, Azizbek bilan bo’lgan mojarosini so’zladi, bashariyat*⁸ (endilikda bashariyat erkin nafas ola boshladi), *ma’muriyat*⁹ (zavod ma’muriyati ishni to’g’ri tashkil etganligidan mahsulot ishlab chiqarish tobora o’sib bormoqda).

⁷ “bir to’da, guruh, kishilar” ma’nosini ifodalovchi mazkur leksemaning arxaik *jamo*a varianti ham ishlatib kelingan. Hozirda mazkur atama, birinchidan, “kollektiv” ma’nosida (“Zarbdor” nomli jamoasi), ikkinchidan, “komanda” ma’nosida (futbolchilar jamoasi) ishlatilmoqda. Ayni shu keyingi semadan *jamo*adosh qabilidagi shaxs nomi yasalganligini ham qayd etamiz.” *Respublikamizning kurashchilar jamoasi ajoyib g’alabalar bilan barchani xushnud etmoqda*” (Gazetadan). O’zbek tilining izohli lug’ati (2-jild)da *jamo*a va *jamo*at so’zlari alohida sharhlangan. 68-69-b.

⁸ Mazkur leksema *insoniyat* (insoniyatning kelajagi porloq) ham *kishilik jamiyati* kabi guruhshaxs nomlari bilan sinonimik munosabatga kirishadi.

⁹ Hozirda ona tilimizda qo’llab kelingan, o’zbek tilining izohli lug’atida ham qayd etilgan *adminstratsiya* (muassasa, korxona, tashkilot rahbarlari majmui ma’nosida) atamasini siqib chiqarib, faol ishlatila boshlandi.

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligidagi sinonimiya masalalarini o'rganishga bag'ishlangan ayrim ishlarda so'z yasalishi doirasida paydo bo'lgan va shakli ma'lum darajada o'zgarishga duch keladigan leksemalarni variantlar deb atash qabul qilinganligini ta'kidlab o'tamiz. Masalan, akademik A.Hojiyev variant haqida shunday deb yozadi: "Til birligining turli-tuman o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan formasi, ko'rinishi"¹⁰. Bu ta'rifdan kelib chiqib, ham leksema asosidagi, ham morfematik variantlar mavjud degan xulosaga kelish mumkin. O'zbek tilida keng qo'llanishda bo'lgan *nonvoy* (novvoy) kabilarni leksik variantlar deb atash mumkin. Morfematik variantlikda esa morfemaning har qanday qurshovda biri o'rnida ikkinchisini ishlatish mumkin bo'lgan morfemalaridan hosil bo'lgan leksemalarni tushunish mumkin. *Tilchi* – *tilshunos*, *adabiyotchi* – *adabiyotshunos* kabilar shular jumlasidandir.

Lisoniy kuzatishlardan o'zbek tilida variantdorlik, ayniqsa uning morfematik variantdorligi turi keng tarqalgan hodisa ekanligi ma'lum bo'ldi. Bunday varinatdorlik, ayniqsa, shaxs otlarini ifodalovchi leksemalar doirasida nihoyatda faol ekanligini alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. Quyidagilardan shaxs otlarining variantdorligi ikki xil ko'rinishda ekanligi ma'lum bo'ldi:

1. Yasovchi elementlari har xil shaxs nomlari;
2. Leksema va birikma shaklidagi shaxs nomlari.

Quyida mana shular xususida to'xtalib o'tiladi.

1. Yasovchi elementlari har xil shaxs nomlari variantdorligi. O'zbek tili leksikasining shaxs otlari mikroguruhida yasovchi elementlari (affiks, prefiks) xilma-xil bo'lgan lug'aviy birliklarni istagancha topish mumkin. Yo.Tojiyevning guvohlik berishicha, ona tilimizda *-chi* // *-kash*, *-chi* // *-shunos*, *-chi* // *-soz* kabi yigirmaga yaqin yasovchilar vositasida hosil qilingan shaxs nomlari mavjud ekan¹¹. *Gulchi* // *gulfurush*, *askiyachi* // *askiyaboz*, *etikchi* // *etikdo'z*, *tarixchi* // *tarixshunos* // *tarixnavis*, *holvachi* // *holvapaz*, *mehnatchi* // *mehnatkash*, *traktorchi* // *traktorist* kabilar shular jumlasidandir.

¹⁰ Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1985. –B.25

¹¹ Tojiyev Yo. O'zbek tilida shaxs otlari yasovchi affikslar. –T.: 1987.

Ma'lumki, "paxsa devor uruvchi kishi" tushunchasini ifodalash uchun *paxsazan, paxsakash, paxsachi* kabi uchta variantdor leksema qo'llanadi.

Ona tilimizda "guruhiy shaxs" ma'noli leksemalar borki, quyida shular haqida fikr yuritamiz. Ona tilimizda yakka shaxslarni ifodalash maqsadida minglab leksemalardan foydalanib kelinmoqda. Shu bilan birga, o'zbek tilida "ikki va undan ortiq shaxs" ma'nosini ifodalash maqsadida qo'llanayotgan leksemalar miqdori bir qadar kamroq. Shu dalilning o'ziyiq, qayd etilgan ma'noli lug'aviy birliklarning ona tilimiz leksikasi tarkibida o'ziga xos o'rni borligidan dalolat beradi.

Avvalo, bunday qatlam qanday lug'aviy birliklar bilan ifodalanayotganligi haqida tasavvur hosil qilish uchun quyidagi misollarni keltirib o'tamiz: xalq, omma, avom, urug', elat, to'da, guruh, hay'at, rayosat va b. Mazkur tadqiqot obyekti o'zbek tilshunosligida yangi bo'lganligi uchun ham birinchi galda uning ifodalanish "nuqta"larini aniqlash lozim bo'ldi.

To'plangan materiallar tahlilidan "guruhiy shaxslar" tushunchasi ona tilimizning quyidagi usul va vositalaridan foydalanib reallashtirilayotganligi ma'lum bo'ldi:

1. Leksemaning o'z semantik xususiyatlardan "umumlashtiruvchilik, jamlovchilik" ma'noli shaxs nomlari tushunchalari ifodalanadi. Masalan, *omma* deyilganda "biror ijtimoiy guruhning katta ko'pchiligi, umum, ko'pchilik, xalq" ma'nosi anglashiladi. Shu bilan birga, bir guruh ko'pchilik, ya'ni yakka shaxslar ishtirokidan iborat ekanligini ham nazarda tutish lozim. Fikrimizni yanada aniqroq dalillashtirish maqsadida quyidagi misollarni keltiramiz: *olomon, xalq, avlod, urug', qabila, elat, to'da, jamoa* va b. Masalan, "Oila a'zosi huquqiga ega bo'lsangiz, kvartiradan foydalanishga haqqingizni sud orqali talab qilishingiz mumkin; Boburiylar sulolasining asoschisi shoir va olim Zahiriddin Muhammad Bobur... xarakterli bir ma'lumot yozib qoldirgan...; vohamizda istiqomat qilayotgan 100 dan oshiq millat va elat vakillari... Vatan ravnaqi yo'lida ter to'kmoqdalar. Bu leksemalarning har biri "muayyan guruhga birlashgan", biror

guruh tarkibida ishtirok etgan yoki ishtirok etayotgan”, “ma’lum bir guruhlardan iborat shaxslarning umumiy, jamlashgan nomlari” ma’nolarini anglatib kelayotganligini anglash qiyin emas.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ona tilimizda ayni shunday ma’noli leksemalarning kattagina bir qismini ruscha baynalmilal lug’aviy birliklar tashkil etadi. *Gvardiya, patrul, militsiya, komanda, armiya (masalan ishsizlar armiyasi), kollegiya, truppa, ansambl, ekipaj, aktiv, kvorum, rektorat, dekanat* kabilar ayni shunday leksemalar jumlasidandir: “Portlash natijasida ekipaj a’zolari va samolyot qulab tushgan joydagi bir qancha aholi qurbon bo’lgan; militsiya kelganidan keyin haydovchining shaxsi aniqlandi; ammo ichki ishlar vaziri... ular politsiyaning doimiy nazoratida bo’lishini ma’lum qiladi.”

2.“Umumlashtiruvchilik, jamlovchilik”, “ko’plik”, “bir guruhga birlashganlik” kabi ma’noli shaxs nomlari yasama leksemalar vositasida ham ifodalanishi mumkin. Bu lisoniy hodisani tavsiflashdan oldin quyidagi bir masalaga e’tibor berish lozimligini qayd etmoqchimiz. Ona tilimiz leksikasida ma’lum shart-sharoitlar taqozosi bilan diaxron planda ko’plab arabiy lug’aviy birliklar ishlatila boshlandi. Ularning kattagina bir qismi hozirda ham qo’llab kelinmoqda. Shunday o’zlashmalar sirasiga -at (-ot, -yot, -yat) qo’shimchasi bilan yasalgan so’zlar ham bor. Ularning ko’pchiligi aslida arab tilining o’zida yasalgan bo’lib, yaxlitligicha ona tilimizga ham o’zlashtirilgan edi. Morfematik qismlarga ajratilmaydigan shunday leksemalar jumlasiga qiymat, alomat, ne’mat, xiyonat, matonat, harorat kabilarni misol keltirish mumkin. Vaqt o’tishi bilan til qonuniyatlari asosida bu kabi leksemalar miqdorining juda katta ekanligi, muntazamdorlik kabi holatlar taqozosi bilan -at (keltirilgan variantlari bilan) affiksi ona tilimizda ham o’ziga xos so’z yasovchilardan biriga aylanib qoldi. Ayni shunday holat boisidan “umumlashtiruvchilik, jamlovchilik” ma’noli qator shaxs nomlari yuzaga kela boshladi. Alohida ta’kidlab o’tamiz: bunday leksemalar aslida arabiy bo’lmish asoslarga – at affiksini qo’shib yasash sinxron planda ro’y berayotgan, aniqroq qilib aytganda, o’z tilimizda sodir bo’layotgan hodisadir. Masalan, keyingi paytlardagina “majlis, kengash kabi yig’ilishlarni boshqarib

borish uchun saylangan kishilar, guruh” ma’nosini ifodalash maqsadida *rayosat* leksemasi qo’llana boshladi. Bu o’zbek tilining o’zida hosil qilingan leksemdir. Tahririyat lug’aviy birligi haqida ham hunday deyish mumkin. Chunki u ham sinxron planda paydo bo’lgan yangi leksemdir: *Tahririyat yig’ilishida shu gazetaning kelgusi soni maketi ko’rib chiqildi*.

“Ko’pchilikdan iborat shaxslar” ma’nolarini ifodalash maqsadida yuqoridagi tarzda yasalgan yana quyidagi leksemalarni misol qilib keltirish mumkin. Jamoat (Yusufbek... Eski Jo’vada azim bir jamoat yig’ib, Azizbek bilan bo’lgan mojarosini so’zladi, bashariyat (endilikda bashariyat erkin nafas ola boshladi), ma’muriyat (zavod ma’muriyati ishni to’g’ri tashkil etganligidan mahsulot ishlab chiqarish tobora o’sib bormoqda).

To’plangan materiallar tahlilidan shunday holat ayon bo’ladiki, o’zbek tilida shaxsga aloqador lug’aviy birliklarning asosiy qismi, to’g’rirog’i, qariyb 99 foizi erkak kishilarga nisbatan ishlatilar ekan. *Aravakash, bakovul, belkash, imom, sarkarda, qorovul, darvesh, karnaychi, kunchi, muhrdor, podshoh, amir, so’fi* va boshqalar shular jumlasidandir. Bu kabi leksik birliklarning paydo bo’lishi va tilda qo’llana boshlanishi bevosita ijtimoiy-siyosiy hayotning o’ziga xosligi bilan izohlanishi mumkin. Chunki o’tmishda ijtimoiy siyosiy maydonda ham, ro’zg’or tebratishda ham erkak kishilar asosiy rolni o’ynab kelgan. Boshqacha aytganda, erkaklar bilan ayollar o’rtasida ochiq-oydin mehnat taqsimoti ro’y bergan, ya’ni erkaklar yuqoridagi sohalarda, ayollar esa uy-ro’zg’orda faoliyat ko’rsatgan. Shu boisdan ona tilimizda erkak kishilar faoliyati bilan aloqador shaxs nomlarining miqdorini aniqlashda yuzlab o’lchovlardan kelib chiqish mumkin bo’lgani holda, ayni shunday faoliyatda ayollar shaxsini anglatuvchi leksemalar miqdori haqida bunday deyish qiyin. Hisob-kitoblarga qaraganda, hozirgi o’zbek tili lug’ati tarkibidan faqat ayollar jinsini ifodalovchi shaxs nomlari nari borsa 200 taga yetadi, xolos. To’g’ri, o’zbek tilida shunday leksik birliklar borki, ulardan umumiy tarzda ikkala jinsga ham aloqador shaxs ma’nosini anglash mumkin. Masalan, yozuvchi leksemasini olib ko’raylik. “Badiiy asar yozish bilan shug’ullanuvchi shaxs” ma’nosini anglatuvchi bu leksemadan qaysi shaxs haqida gap

ketayotganligini tezda fahmlay olish qiyinroq (hayotda erkaklar ustunligi mavjudligi taqozosi bilan bu soʻz zahirida dastlab erkak kishi haqida tasavvur hosil boʻlishi tabiiy). Bu leksemdagi jinsiy farqni faqat matndagina aniqlash mumkin. Masalan, *Oradan kunlar oʻtdi. Biroq qayta kelmadingiz. Bir kuni palata vrachimiz Bonu Hamidova kirib hol-ahvol soʻradilar; kunlar, oylar shu tariqa oʻta boshladi. Qizim Dilnora ham katta boʻlib, yura boshladi. Mening beva ekanligimni eshitib har tarafdin sovchilar kela boshladi; - qizim, -dedi ayam yolgʻiz qolganimizda..., sen ayol kishisan, yolgʻiz yashashing, bu dunyoda toq oʻtishing ollohga ham yoqmaydi.*

Oʻquvchi, oʻqituvchi, haydovchi, qalamkash, qaygʻudosh, qasoskor, yoʻlovchi, tarbiyachi, qitmir, beva, tul, qarindosh kabi oʻnlab leksemalar haqida ham shunday deyish mumkin. Bu oʻrinda shuni qayd etish lozimki, mazkur tipdagi leksemalarning ayollar jinsiga aloqador ekanligini konkretlashtirish maqsadida *ayol, xotin, qiz, juvon* kabi lugʻaviy birliklardan ham keng foydalaniladi.

Mazkur masala haqida gap ketar ekan, yuqorida qayd etilgan sabablarga koʻra, biror sohada faoliyat koʻrsatayotgan ayollarga aloqador shaxs nomlari sirasida ularning erkaklarga aloqador korrelyativi yoʻqdir. Demoqchimizki, ona tilimizda faqat ayollar jinsini ifodalovchi maxsus leksemalar mavjud. Bunday leksemalar jumlasiga *kashtachi, yoʻrmadoʻz, doʻppidoʻz, doya, goʻyanda, mashinist, gilamchi (gilamdoʻz), tavamboshi (tavanchi)* kabilarni kiritish mumkin.

Toʻplangan materiallar tahlilidan ayollar jinsiga oid shaxs maʼnosini ifodalash maqsadida xilma-xil usullar va vositalardan foydalanib kelinayotganligi maʼlum boʻldi. Ularni quyidagicha guruhlashtirish lozim deb topildi:

1. Leksik-semantik usul. Ayollar shaxsi bilan aloqador tushunchalarni ifodalashda leksik-semantik usulda foydalanib kelinmoqda. Yaʼni, shu maqsadda faqat tub – morfematik qismlarga ajratilmaydigan leksemalardan foydalaniladi. Bunday usul, yaʼni leksemaning oʻz semantikasi orqali ayolar jinsini ifodalash oʻzining qadimiyligi va hamishaligi bilan alohida ajralib turadi.

Avvalo shuni qayd etish lozimki, mazkur guruh tarkibida quyidagi shaxs nomlari mavjud: *doya, enaga, dugona, lobar, alvasti, maston, otin:*

Tumanimiz shifoxonasida bir shoira, chevar, xushovoz qiz bilan bitta palatada davolandim. Avstraliyalik uy bekalari ... jundan uzunligi 40 sm bo'lgan nimcha to'qishga kirishgan.

Shu bilan birga, ona tilimizdagi ayrim leksik qatlamlar doirasida muayyan bir tizimni tashkil etuvchi ayollar jinsiga aloqador shaxs nomlari mavjud ekanligini ham ta'kidlab o'tamiz. Bu kabi lug'aviy birliklar, ayniqsa, quyidagi mavzuiy guruhlarda miqdorining ko'pligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi:

2.Qavm-qarindoshlikni ifodalovchi leksik qatlam¹². Ma'lumki, qavm-qarindoshlik erkak va ayol kishilarning birga yashashidan yuzaga keladi. Shuning uchun ham, bu leksik qatlamga mansub nomlarning ko'pgina qismi tub shaklida bo'lib, ularning semantikasidan erkaklar yoxud ayollar jinsiga mansub bo'lgan shaxsga aloqador tushunchalar ifodalanadi. Fikrimizni quyidagi misollar yaqqol tasdiqlay oladi: *er-xotin, tog'a-amma, bobo-buva, momo-buvi, kuyov-kelin* kabilar.

3.Yoshi bo'yicha farqlanuvchi qatlam. Yuqoridagi kabi bu mavzuiy guruhda tub shakldagi qator leksemalar mavjudki, ularning semantikasidan ayollar jinsiga mansub shaxs ma'nolarini anglab olish qiyin emas. **Qiz** – “balog'at yoshiga yetmagan ayol” ma'nosida: **Ayol** – “voyaga yetgan qiz” ma'nosida: paxtazorda faqat ayollar chopiq bilan, erkaklar esa choyxo'rlik bilan band; **Juvon** – “turmushga chiqqan; **Kampir** – *u Anzirat xola, oltmishlarga borib qolgan, nimjon ... bir kampir edi* kabilar.

Ma'lumki, o'zbek tili leksikasida o'zlashgan qatlam muhim rol o'ynaydi. Ona tilimizda qo'llanib kelinayotgan qator shaxs nomlari haqida ham shunday deyish mumkin. Ularning bir qismini ayollar jinsiga mansub shaxs nomlari tashkil etadi. Bu o'rinda ta'kidlanishi lozim bo'lgan holat shundan iboratki, erkaklar jinsiga aloqador shaxs nomlariga –a (-iya) tuzilishidagi qo'shimchalar qo'shiladi va shu bilan ayollar jinsiga aloqador shaxs nomlari hosil qilinadi. Misollar keltiramiz: *sohiba, mahbuba, volida* “ona” ma'nosida: *validamiz betob yotgan ekanlar, meni ko'rib xushdan ketdilar* va h. *Adiba, oqila, malika, asira, ma'suma, ma'shuqa, mahbuba, muallima, mudira, ojiza, sohiba, fozila* va b. Ta'kidlash

¹² Ismoilov I. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. T., 1966.

lozimki, bu kabi leksemalardan ko'pining erkaklar jinsiga mansub korrelyativlari mavjud: *adib, oqil, malik, asir, muallim, shoir* va h.k.

Ayni shu o'rinda fors-tojik tillaridan o'zlashtirilgan qator leksemalar ishlatilayotganligini ta'kidlaymizki, ular keltirilgan lug'aviy birliklar bilan shaklan o'xshab ketadi. Biroq ularning aksariyati ikkala jinsga aloqador shaxs nomlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Fikrimizni quyidagi misollar to'la tasdiqlay oladi:

4.O'zbek tili leksikasining shaxsga oid qatlamida rus tilida o'zlashtirilgan nomlar ham mavjud ekanligidan ko'z yuma olmaymiz. Bunday nomlar qatorida ayollar jinsiga mansub shaxs nomlari ham bor ekanligini ta'kidlashni lozim deb bilamiz. Olim Usmon tomonidan tuzilgan lug'atda¹³ esa ayollar jinsiga oid quyidagi leksemalar tegishli izohlar bilan berilgan: *aktrisa, akusherka, aspirantka*, kabi.

Qayd etilgan manbalarga murojaat qilinganda, erkaklar jinsiga oid shaxs otlarining ayollar jinsiga doir korrelyativlarini qamrab olishda muayyan bir prinsipda rioya qilinmaganligini ko'rish mumkin. Masalan, o'zbek tilining izohli lug'atida *abbat, abituriyent, avantyurist, velosipedchi, grajdan, kvartirant* kabi erkaklar jinsiga oid leksemalar o'z ifodasini topgani holda ularning *abituriyentka, avantyuristka, velosipedistka, grajdanka, kvartirantka* singari korrelyativlari qayd etilmagan.

Ayni shunday holatni yuqorida qayd etilgan "Internatsional so'zlar lug'ati"da ham kuzatish mumkin, chunki unda *metodist, monarxist, naturalist, okulist, optimist, partizan, patsifist, peyzajist, pessimist, praktikant* kabi kabi qator leksik birliklarning ayollar jinsiga doir korrelyativlari o'z ifodasini topmagan.

Shu bilan birga, mazkur lug'atda erkak va ayollar jinsiga aloqador leksemalarning ikki xil prinsip asosida berilganligini ko'rish mumkin: *abbat-abbatissa; aspirant-aspirantka; laborant-laborantka* va b.

Ayollar jinsiga aloqador shaxslarni ifodalash maqsadida, yuqoridagilardan farqli o'laroq, analitik usuldan ham foydalanilayotganligini alohida ta'kidlab o'tamiz. Bunday holat quyidagicha amalga oshiriladi: bevosita erkaklar jinsiga

¹³ O.Usmon. Internatsional so'zlar lug'ati. T., 1959.

aloqador shaxsni ifodalovchi leksemalarga *qiz, ayol, juvon, opa, xotin* o'ziga xos appelyativlar (ularning qon-qarindoshlikdan o'zgacha ma'nolarida, albatta) dan biri keltiriladi (tabiiyki, yozma nutqda) va shu yo'l bilan shaxsning ayollar jinsiga oidligi ifodalanadi. Fikrimizni tasdiqlovchi misollar keltiramiz: Hurriyatga erishganimiz boisdan, hozirda *biznesmen ayollarning* soni ham tobora ko'payib bormoqda. Hozirda ham ayrim mamlakatlarda *o'quvchi* qizlar birga o'qitilmay kelinayotir; *doktor opamizdan* juda minnatdormiz (So'zlashuv nutqidan); *oshna, shu shifokor juvon* menga juda yoqib qoldi: *bejirimgina, ko'hlikkina ekan; Tramvay haydovchi xotin mikrofondan o'shqirib e'lon qildi: Yo'lovchilar! Chiptalar olmasangizlar hoziroq tushirib yuboraman* va b.

O'zbek tilida ayollar jinsiga mansub shaxs nomlari xilma-xil yo'llar va usullar bilan ifodalanayotgani ma'lum bo'ldi. Shunday ekan, mavzuyimiz nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, bunday usullarning qaysi biri o'zbek tilining izohli lug'atida va qay tarzda o'z ifodasini topganligini va bu masala yangi "Izohli lug'at"da qanday aks ettirilishi kerakligini tushunib yetish qiyin emas. To'g'ri, bu o'rinda biz bildirayotgan fikr-mulohazalar, albatta, yangi "Izohli lug'at"da o'z ifodasini topgan. Biroq niyatimiz faqat bitta - yangi tadqiqotlarda bu kabi holatlar e'tiborga olinsa, ayni muddao bo'lur edi. Shuning uchun kelajakda bizning tavsiyalarimiz ham ma'lum darajada inobatga olinsa ajab emas, degan umiddamiz. Bu boradagi fikr-mulohazalarimiz esa quyidagilardan iborat:

1. Ayollar jinsiga oid shaxs ham umumleksikaning tarkibiy bir qismi hisoblanadi. Shunday ekan, ular ham tegishli, lug'atlarda ayniqsa, yangi izohli lug'atda o'z ifodasini to'la topgan. To'plangan materiallar tahlilidan ikki tomli o'zbek tili izohli lug'atida ayollar jinsiga taalluqli shaxs nomlarining bir talayi aks ettirilmaganligi ma'lum bo'ldi. *Vazira, johila, jununa, zolima, kotiba, makkora, ma'mura, mahkuma, me'mora, muallima, munisa, muslima, mushfiqa, noiba, faola, shaddoda, qotila* kabilar shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, ikki tomli o'zbek tili izohli lug'atida o'z ifodasini topgan asl semalar qatorida ruscha- baynalmilal shakldagi ayollar jinsiga mansub shaxsiyat nomlari ham yo'q, yangi izohli lug'atda esa qo'llangan. Chunki bunday

leksemalar, xohlaymizmi, xohlamaymizmi - bundan qat'iy nazar, nafaqat og'zaki, balki yozma nutqda ham qo'llanilayotganligini tan olmasdan boshqa ilojimiz yo'q. To'g'ri, o'zbek tilida qo'llanayotgan erkaklar jinsiga mansub korrelyatlarini donor tillardagiday qabul qilish uchun ona tilimizning qonun-qoidalari imkon bera olmaydi. Ma'lumki, rus tilida jenskiy rodga mansub shaxs nomlarini yasashda – iniya, -ыniya(knyaginya, боягыnya) –issa, -essa (prinsessa, baronessa), -sha (konduktorsha, kassirsha), -ka (mashinistka, aktivistka), -itsa (udarnitsa, pevitsa) kabi suffikslardan foydalaniladi. Lisoniy dalillaridan kelib chiqiladigan bo'linsa, ta'kidlash lozimki, ona tilimizda faqat –ka suffiksli ayollar jinsiga mansub shaxs nomlari ishlatib kelinmoqda. Yuqorida keltirilgan misollar ham shundan dalolat beradi. Shunday ekan, tuzilgan yangi “Izohli lug'at”da shu tipdagi shaxs nomlari o'z ifodasini topgan (tegishli misollar yuqorida keltirilib o'tilgan edi). Boshqa suffikslar bilan yasalgan shaxs nomlarini ayni shu tarzda ifodalashning iloji yo'q, albatta.

2.Yana bir bor qayd etish lozim: o'zbek tilidagi juda ko'p shaxs otlari ikkala jinsga oid ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qilaveradi. Shunday ekan, o'zbek tili ikki tomli izohli lug'atida leksemalarning izohida uning ikkala jinsiga ham aloqadorligi qay yo'sinda bo'lsa-da, ta'kidlanishi lozim edi. Buning ustiga, shu holatni tasdiqlovchi illyustrativ misollar ham keltirilishi kerak edi. Amalda esa bunday bo'lib chiqmagan. Fikrimizni quyidagi misol bilan tasdiqlashga urinamiz.

Masalan, tarbiyachi leksemasini olib ko'raylik. Unga uch xil sinonimdan iborat izoh berilgan: 1. “Tarbiya beruvchi”- bu sintaktik shaxs nomidan ikkala jinsga aloqadorlik mavjud: a) Karimov yaxshi tarbiya beruvchi inson; b) Karimova yaxshi tarbiya beruvchi inson; 2. “Muallim” – bu leksema faqat erkaklar shaxsini ifodalaydi; 3. Murabbiy – mazkur leksema ham faqat erkaklar shaxsini ifodalaydi.

Endi mazkur leksemani izohini tasdiqlovchi misollar izohiga o'tamiz. Unda, avvalo, misollarning ikkitasi birikma holida ekanligini ta'kidlaymiz. Ulardan quyidagilardir: 1. “Bog'cha tarbiyachisi” - bu misoldan shaxsni faqat ayollar jinsiga aloqadorligini payqash qiyin emas, chunki respublikamiz sharoitida faqat ayollargina bog'chada tarbiyachi bo'lib ishlaydi; 2. “Tarbiyachi ayol” – biror

izohsiz ham uning ayollar jinsiga mansubligi ma'lum bo'lib turibdi; 3. Nihoyat P.Tursunning "O'qituvchi" romanidan quyidagi matnli misol keltirilgan: "Uning g'urur to'la ko'zlari... ustozlarga tikilar, ota o'rnida otalik qilgan hurmatli Davronovga, jonkuyar tarbiyachi Nafisaxonimga chin qalbidan minnatdorlik bildirgisi kelar edi"(O'TIL, 1981. 2-j. 321-b.) Mazkur misolda ham shaxs nomini ayollar jinsiga aloqadorligini aniqlash qiyin emas. Yangi izohli lug'atda bu leksemaning "murabbiy" sinonimi qayd etilgan, natijada erkaklar jinsiga mansubligi ma'lum bo'lib turibdi. (O'TIL, 2007. 3-j. 679-b)

Demak, tarbiyachi leksemasining izohidan uning erkaklar jinsiga aloqadorligi, misollardan esa faqat ayollar jinsiga mansubligi ma'lum bo'ladi. Ikki tomli o'zbek tilining izohli lug'atida bunday ziddiyatli holatning ro'y berganligini oqlash qiyin, albatta. Pirovardida, tuzilayotgan yangi "Izohli lug'at"da bu kabi kamchiliklarning takrorlanishining oldi olingan. Shuning uchun, xususan, *tarbiyachi* leksemasi unda quyidagi tarzda o'z ifodasini topsa, masala to'g'ri hil etilgan bo'lar edi, deb hisoblaymiz:

Tarbiyachi – "tarbiya beruvchi shaxs; murabbiy. Bog'cha tarbiyachisi. Tarbiyachi ayol"¹⁴ ma'nosida. Bolalar uylarida tarbiyachi erkaklarning soni tobora kamayib bormoqda. Bu esa o'g'il bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Uning g'urur to'la ko'zlari ... ustozlariga tikilar, ota o'rnida otalik qilgan hurmatli Davronga, jonkuyar tarbiyachi Nafisaxonimga chin qalbidan minnatdorlik bildirgisi kelar edi kabi.

Ayni shunday nomutanosiblikni *o'qituvchi*, *o'quvchi*, *chirmanda*, *xonanda*, *xo'randa*, *sozanda* kabi o'nlab leksemalar misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. Yangi izohli lug'atning tuzilishi natijasida bunday nomutanosibliklarga chek qo'yildi.

SHuni aytib o'tish kerakki, shaxs nomlari faqat rasmiy hujjatlar, gazeta va jurnallar materiallaridagina emas, balki badiiy adabiyotda ham ko'plab ishlatiladi. Chunki adabiyotda inson va uning kasb-kori-yu, xulq-atvori, yurish-turishi xilma

14 O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. –T.: O'zME, 2007. –B.679.

xil hislatlari o'z ifodasini topadi. Masalaning ayni shu tarzda qay darajada ekanligini tasdiqlash maqsadida ayrim dalillarga murojaat etamiz.

Ma'lumki, Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asari Xudoyorxon va Munshiylar hayotidan olib yozilgan tarixiy romandir. Shu boisdan, unda oddiy mehnatkashdan tortib mamlakatning eng yuqori amaldorlarigacha tilga olingan, ya'ni ularning sevgi mojarolari ham, niyat va orzulari ham, qilmish-qidirmishlari ham, xullas, barcha xususiyatlari, kasb-korlari o'z ifodasini topgan. Qayd etilganlarning barchasi esa tabiiy ravishda shaxs nomlarida mujassamlashgandir. Fikrimiz dalili uchun bevosita misollarga murojaat etamiz: *ega*¹⁵ (*Ra'noning egasi*), *Maxdum* (*Solix Maxdum*) *Oyim* (*Nigor oyim*), *Dada uka, er, ona, bola, uy egasi, chaqaloq, aka* (*Anvar akang, oila, muallim, imom, "Maktabdor domla", ota, mudarris, ota bola, xabardor, kishi, kanizak, kaniz, o'g'il, kaniz qizi, ulamo, go'zal, valine'mat, marhum, jamoa, mo'min, zot, kimarsa, volid, validai ayni, qo'shin, bosh, talaba, og'a, singil, qarindosh urug', mahalla kishilari, kelin, kuyov, bek, bekozoda, qarshi quda, mirza, qizcha* va b.

Bulardan tashqari, asarning ana shu bo'limida yana quyidagi shaxs nomlari tilga olingan: *udaychi, raiyat, shahzoda, navjuvon, shahanshoh, dushman, yov, nomussizlar, dinini sotgan, munofiq, xon hazrat, mingboshi, qushbegi, domla, shig'ovil, janob, hazrat, arkon (davlat arbobi), qul, valene'mat, kishi, qiziq (xonni qizig'i), axmoq, jinni, devona, yetim, bola, yangi, baqa aft (taqsininga birinchi al shuki, -dedi Zokir -gov, yonimda turgan shu baqa aftni mendan nari qilsangiz), shohi baxtiyor, , banda, darbadar, el kezar, qul, xoqon, g'urabo (g'ariblar), yor, ena, bepadar, bechora* va b. Qisqasi, adibning "Mehrobdan chayon" romanida yana yuzlab shaxs nomlari o'z ifodasini topgan bo'lib, ular ona tilimiz leksik boyligini tarannum etuvchi dalillardan hisoblanadi.

Ona tilida shaxs nomlari tez-tez tilga olinib turiladigan yana bir manba mavjudligini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Bu badiiy asarlar yoki kinofilmlar nomlaridir. Shunisi ham borki, bu manbalarda qo'llanayotgan shaxs nomlari 7 yoshdan 70 yashargacha bo'lgan deyarli barcha ahli zotlarga tanishdir. Chunki,

¹⁵ A.Qodiriy «Mehrobdan chayon», -T., 1974.

ko'pchilik badiiy asarlarni o'qiydi, kinofilmlarni, teleko'rsatuvlarni ko'radi. Bunday manbalarda qo'llanayotgan shaxs nomlarini shartli ravishda ikki guruhga ajratib ko'rsatish mumkin.

1.O'zbek tilida yozilgan badiiy asarlar yoxud respublikamizda yaratilgan badiiy filmlarda ishlatilgan shaxs nomlari. Bunday leksemalar yakka holatda ham, boshqa-boshqa so'zlar qurshovida ham qo'llanayotgan bo'lishi mumkin. *“Dorboz”, “Vatangadorlar”, “Dahoning yoshligi”, “Inqilob chavandozlari”, “Shoirning taqdiri”, “Boy ila xizmatchi”, “Sinchalak”, “Farg'onalik beshovlon”, “Opa-singillar”, “Nasriddin afandi Buxoroda”, “Temirchi Jo'ra”, “Qizlar”, “Sadag'ang bo'lay komandir”, “Shum bola”, “Qotil”, “Mavlonov Muqimiy”, “O'g'rini qaroqchi uribdi”, “Sudxo'rning o'limi”, “Onajonlar”, “Er boshiga ish tushsa”, “O'zbek shoirlari”, “Yuragingga yaqin kishilar”, “O'g'ri”, “O'g'il mehri”, “Odamlar”, “Yusufjon qiziq”, “Elchilar”, “G'oliblar”, “Olovkor”, “O'qituvchi”, “Sen yetim emassan”, “G'eneral Sobir Rahimov”, “Kampirlar”, “Kelinlar qo'zg'oloni” va boshqalar.*

2.O'zbek tiliga tarjima qilingan asarlar yoxud dublyaj qilingan filmlarning nomlarida o'z ifodasini topgan shaxslarga oid leksamalar: *“Ona”, “Meshchanlar”, “Soldat otasi”, “Soldat haqida ballada”, “Polk o'g'li”, “O'n besh yoshli kapitan”, “Kapitan qizi”, “Bekat nazoratchisi”, “Boylar ham yig'laydi”, “Birinchi o'qituvchi”, “Xasan aravakash”, “Tirik murda”, “O'g'il mehri”, “Odamlar”, “Onajon”, “Elchilar”, “Ikki boyga bir malay”, “Kumush trener”, “Darvozabon”, “Xokkeychilar”, “Qizil shaytonlar”, “Qo'lga tushmas qasoskorlar”, “Urushga faqat qariyalar boradi”, “XX asr qaroqchilari”, “Ko'ngillilar”, “Oltin yulduz kovaleri”, “Zamonamiz qahramoni”, “Zena – jangchilar qirolichasi”, “Daydi”, “O'gay ona”, “Traktorchilar”, “To'rt tankchi va bir it” va boshqalar.*

Qayd etilganlar masalaning birinchi jihati. Ikkinchisi, quyidagidan iborat: ikki tomli o'zbek tilining izohli lug'atining “Lug'atning tuzilishi va undan foydalanish tartibi”da shunday deyilgan: “Illyustrativ misollar, lug'at maqolasidagi so'z va iboralarining hamda ularning ma'no va ma'no noziklarining o'zbek tilida

haqiqatan mavjudligini, shu bilan birga, soʻz va iboralarning mavjud maʼnolarida toʻgʻri ishlatilganligini tasdiqlash, shu bilan birga, bosh soʻzning boshqa soʻzlar bilan siktaktik munosabatini koʻrsatish uchun xizmat qiladi”¹⁶. Toʻgʻri, boshqa leksemalar qatori, qator shaxs nomlariga nisbatan ham ayni shunday prinsip asosida yondashilgan, yaʼni ularning izohidan keyin illyustrativ materiallar baʼzan birikma shaklida, gohida misol-sitata keltirilgan. Biroq, lugʻatdan ayrim shaxs nomlari ham joy olgan-u, lekin ular illyustrativ materiallar bilan taʼminlanmagan. Vaholangki, Gʻ.Gʻulomning birgina “Shum bola” qissasidayoq ayrim shaxs nomlari izohini toʻldiruvchi vosita, yaʼni misol-sitata yetib ortadi. Dalillarga murojaat qilamiz: *Xuddi ana shu bozorda oʻz mahallam, **oʻrtogʻim**, boʻyinchadoʻz Omonbibining **oʻgʻli** Xusnibiyni uchratib qoldim. Kamina **qalandarvachcha**, kavshandozda qoʻl qovushtirib, tavoze bilan xizmatlariga intizor boʻlib turdim; ... **dushmanimizni** yer bilan yakson qilsin, **igʻvogarlarning**, **fitna-fasodchilarning** ogʻziga tosh!;*

Keltirilgan materiallardagi *boʻyinchadoʻz*, *qalandarqachcha*, *fitna-fasodchi*, *mahallalik* kabi shaxs nomlari ikki jildli oʻzbek tilining izohli lugʻatida izohlangan boʻlsa-da, ularning barchasida ham misol-sitata keltirilmagan.

¹⁶ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. T.1. –M.: Rus tili, 1981. –B. 15.

2-BOB

SHAXS OTLARINING TARKIBIY TUZILISHIGA KO'RA TURLARI

Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, ona tilimizda azal-azaldan shaxs tushunchalarini ifodalash maqsadida sodda va qo'shma leksemalardan foydalanib kelingan. Bu usullar hozirda ham amaldadir.

Sodda shaxs nomlari haqida gap ketar ekan, dastlab, ularning tub va yasama turlari mavjud ekanligini uqtirish lozim bo'ladi. Shunisi ham borki, shaxs nomlarining har ikkala tuzilishi turidan uzoq o'tmishdayoq foydalanib kelingan.

Hozirgi bosqichda shaxs nomlaridan juda faol foydalanib kelinmoqda. Fikrimiz dalili uchun misollarga murojaat etamiz:

1.Tub holdagi shaxs nomlari: *abjir, abira, avbosh, avom, adib, ayol, aka, banda, bola, vazir, voiz, vrach, daho, degrez, dekan, dugona, yor, yot, janob, jasur, jezna, zolim, zukko, inson, yigit, keksa, kulol, maston, muxbir, mulla, nabira, ona, ota, otin, pochcha, rassom, sudya, xo'rand;* *Mardlar* qo'riqlaydi Vatanni; *Go'daklar* sog'lom bo'ladi; *Suratlarda: brigadir* Nigora Turdiqulova va *texnolog* Zaynabxon Abduraupova; *Fermerlar* haqida yozinglar. Yozasizlarmi? Buyuklarning yulduzini Olloh hech qachon so'ndirmas ekan; Yo'ldosh *to'ng'ichi* Akramjonning tarbiyasiga katta e'tibor berar edi; Uch og'ayni *botirlar*; Yangi uyga ko'chib o'tish tantanasi to'y *bolalarning* quvonchiga ulandi; Zafarobodlik *dehqonlar* har yili suv tanqisligidan aziyat chekishadi.

2.Yasama shaxs nomlari: *elchi, erkparvar, etikchi, yukchi, yurtdosh, yaganachi, yasovul, o'pkachi, o'roqchi, o'qituvchi, qaroqchi, gulchi, qizaloq, quruvchi, binokor, g'iybatchi, haydovchi, holvapaz, hunarmand, hushtakboz, huquqshunos* kabi. Ammo shaxtyorlarning ko'pchiligi soxta *vatanparvarlarning* afsonalariga ishonmadi; Biroq *qishloqliklarning* ko'pchiligi, xuddi *shaharliklardek* ... hamma narsani sotib oladi; Salom G'aniyev – yangi zamon odami, yangicha fikrlovchi

kishi, *tomorqachi*, *g'allakor*, *paxtakor*, haqiqiy dehqon xo'jaligi egasi..., ... ko'plab *hamkasblarim* o'z vakolatlarini hali-hanuz tushunib yetmayapti...; Bundan tashqari, *qarovchisi* yo'q olti kishiga ming so'mdan pul tarqatishdi: bugungi kunda ularning yuzlab shogirdlari, *izdoshlari* bor; Og'ir kunlarda onasining dardkashi, sirdoshi. Suyangan tog'i; shunday qilib, bir chiroyli yangi zamon targ'ibotchilari anjumani yuzaga keldi.

O'zbek tilida shaxs nomlarini ifodalashda ikki va undan ortiq mustaqil ma'noli leksemalarni bir-biriga qo'shib leksema hosil qilish usulidan keng foydalanib kelinayotganligini ta'kidlab o'tamiz. Bu kabi shaxs nomlarini ikki yuzga yaqini qayd etilganligi diqqatga sazovordir. Mana shularning ayrimlari:

Masalan, yaqindagina temiryo'lcilar ish tashlashdi; Iskandar va uning lashkarboshilari o'zlariga aytilgan madhiyalardan sarmast edilar; Bizning mahallamizdagi ko'p qavatli uylarning har birida o'z uyboshimiz bor: qonunbuzarchilarning paydo bo'lishida ma'lum ma'noda soliqchilarning ham "hissa"lari bor; Eringni ishbilarmon deyishayapti. Tadbirda ... "Mahalla jonkuyari" ko'krak nishoni sovrindorlari aniqlanib, taqdirlandilar; Sen mehmondo'st, mehribon odamsiz...

Yana quyidagi qo'shma shaxs nomlariga ham e'tibor beraylik: *aslzoda*, *askarboshi*, *dallolboshi*, *darvozabegi*, *yebto'ymas*, *jahondiyda*, *jigarband*, *jo'raboshi*, *ikkiyuzlamachi*, *yilnomachi*, *yilqiboqar*, *yo'lboshchi*, *yo'lto'sar*, *karvonboshi*, *kinomexanik*, *kinoyulduz*, *kinosuratchi*, *ko'zbog'lovchi*, *ko'zbo'yamachi*, *maydagap*, *mingboshi*, *o'nboshi*, *ellikboshi*, *molboqar*, *mullabachcha*, *no'xatsho'rakchi*, *olibsotar*, *onaboshi*, *otabezori*, *otashnafas*, *ochko'z*, *oqsoch*, *oqsuyak*, *qalamqosh*, *qozizoda*, *qorovulbegi* va boshqalar.

Ona tilimiz leksikasida juft lug'aviy birliklardan hamki foydalanib kelinayotganligi xususida akademik A.Xojiyevning maxsus ishi bor¹⁷. Ayni shunday leksemalar tarkibida juft tarzidagi shaxs nomlari ham o'ziga xos o'rinni egallab kelayotganligini ta'kidlab o'tamiz. Qo'limizdagi materiallardan chiqqan hisob-kitoblarga qaraganda bu kabi nomlarning soni yuztadan oshdi. Quyida ana

¹⁷ Xojiyev A. O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar. –T.: O'z FAN Akad.nashr., 1963.

shulardan ayrim namunalar keltiramiz: *yosh-yalang, xotin-qizlar, tanish-bilish, qavm-qarindosh, ota-ona, aka-uka, kelin-kuyov, bola-chaqali* va b.

Quyida keltirayotgan juft holdagi shaxs nomlarida ham e'tibor berib o'tish lozim deb topildi: bola – baqra, vitse-prezident, ginerall-mayyor, do'st-dushman, do'st-u yor, yetim-esir, yor-birodar, yor-do'st, yor-og'ayni, yosh-yalang, yosh – qari, katta-kichik, nevara-chevara, oshna-og'ayni, qari-yosh, qarindosh-urug', qiz-juvonlar, qon-qarindosh va boshqalar. Ta'kidlash lozimki, keltirilgan juft shaxs nomlarining juda ko'p qismi guruhviy shaxs nomlari jumlasiga kiradi.

Keltirilgan dalillardan sodda, qo'shma, juft leksemalar ona tilimiz leksikasidagi asosiy boylik ekanligi ayonlashadi, deb hisoblaymiz.

Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, birikmalarning o'rni va roli haqida gapirilganda, R.Doniyorovning "O'zbek tilining ilmiy-texnik birikma-terminlar va uni tartibga solish masalalari" nomli ishini alohida ta'kidlab o'tish lozim¹⁸. Chunki, unda o'zbek tilining turli terminologik tizimlarida qo'llanayotgan birikma terminlar xususida so'z yuritiladi, bunday birikmalarning yasash usullari, xil va turlari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

A.Mo'minovaning dissertatsiyasida O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston Respublikasi Fan arbobi, Vazirlar Mahkamasi Raisi, Oliy Majlis Raisi, Bosh Vazir, Oliy sud Raisi, Konstitutsiyaviy sud Raisi kabi birikmalar sanab o'tiladi¹⁹.

To'g'ri, ona tilimizning terminologiyasini o'rganishga bag'ishlangan ayrim ishlarda ham mazkur masalaga u yoki bu darajada e'tibor berilgan²⁰. Materiallardan ma'lum bo'lishicha, 80 foizdan ortiq shaxsga aloqador tushunchalar birikmalar orqali ifodalanar ekan. Ijtimoiy- siyosiy, iqtisodiy va boshqa - boshqa sohalarda bo'lib o'tgan va hozirda ham ro'y berayotgan yangiliklar tufayli shu soha va tarmoqlarda ish olib borayotgan, ularni boshqarayotgan, ularda ishlayotgan shaxslar tobora ko'payib bormoqda. Buning ustiga, insonning biror hatti - harakati,

¹⁸ R.Doniyorov. Nauchno-texnicheskiye terminy – slovosochitaniya i voprosy ix uporyadocheniya / O'zbek tili ilmiy texnikaviy terminologiyasini tartibga solish prinsiplari. –T.: 1991. –B. 74-184.

¹⁹ Mo'minova A.K. O'zbek tilida mansab va unvon nomlarining leksik-semantik tarkibi: Filol.fan.nom. ...diss. avtoref. –T.,2000. 7-11, 19-21-betlar.

²⁰ Kasymov A. Farnatsevticheskaya terminologiya v sovremennom uzbekskom yazıke: AKD filol. Nauk. –T.: 1982., Madvaliyev A.P. Uzbekskeya ximicheskaya terminologiya i voprosy yeyo normalizatsii: AKD filol.nauk. –T.: 1986; Xusanov A. Nazvaniya bolezney i ix simptomov uzbekskom yazıke: AKD filol. nauk -T.: 1981.

xulq-atvori, talanti, jismoniy va fiziologik holati kabilar bilan bog'liq bo'lgan shaxs nomlari ham mavjudligini unutmasligimiz kerak. Ularning barchasini esa bir so'zdan iborat (tub, yasama, yoxud qo'shma) leksemalar bilan ifodalash qiyin, albatta. Shuning uchun shaxs nomlarini ifodalash maqsadida turg'un birikmalardan ham keng foydalanib kelinmoqda.

Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, ona tilimizda ikki va undan ortiq mustaqil ma'noli leksemaning grammatik jihatdan bir-biri bilan birikuvi natijasida birikma qolipdagi lug'aviy birliklar hosil qilinadi. Shunga ko'ra, birinchi galda, birikma holidagi shaxs otlarining tarkibiga ko'ra xil va turlarini aniqlash lozim deb topildi. To'plangan materiallardan ma'lum bo'lishicha, ona tilimizning shaxs nomlarini ifodalash maqsadida ikki mustaqil ma'noli leksemalarning birikuvidan hosil etilgan birikmalar muhim o'rinni tutar ekan. Yuqorida qayd etilgan 80 foiz miqdoridagi 60 foizdan ortiqrog'i ikki asosli ekanligi ham shundan dalolat beradi. Mana shunday shaxs nomlariga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: *katta o'qituvchi, bosh hisobchi, keksa ayol* kabi.

Leksikologik, xususan, terminologik tizimlarni o'rganishga bag'ishlangan ishlardan shuncha miqdordagi tushunchalarni ifodalash maqsadida ikki va undan ortiq mustaqil ma'noli leksema hamda frazemalarni birikuvidan tarkib topgan birikmalardan foydalanilar ekan. Bunday fikrning asosli ekanligini tadqiqot obyektimiz ham to'la tasdiqlay oladi.

Tabiiyki, erkin birikmalar turg'un birikmalardan o'zlarining grammatik qurilishi, o'zaro birikuv usullari bilan bir-biridan farqlanmaydi, chunki ikkala tip birikma mustaqil ma'noli leksemalardan tashkil topadi. Qiyoslaymiz: *katta odam* (erkin birikma) – *katta o'qituvchi* (turg'un birikma); *bosh bola* (erkin birikma); *bosh vazir* (Turg'un birikma) va *boshqalar*. Ayni shunday o'xshashlik ularning boshqa-boshqa jihatlarida yaqqol ko'rinadi. Masalan, *kichik bola* – *kichik leytenant, xalq ommasi* – *xalq o'qituvchisi, yetakchi bola* – *yetakchi xodim, yetti kishi* – *yetti pusht* va *boshqalar*.

O'zbek tilida leksemalarning qo'shilishidan tarkib topgan birikma shaxs nomlari nihoyatda ko'p va ular tarkibiga ko'ra, bir nechta komponentlardan tashkil topishi mumkin.

1. Ikki kopponentli birikmalar. Tarkibi ikki mustaqil ma'noli leksemalardan iborat shaxs nomlari salmoqli bo'lib, ularning bir qismi ijtimoiy-siyosiy, badiiy, publitsistik adabiyotlar, gazeta hamda jurnallar sahifalarida faol ishlatib kelinmoqda. Fikr dalili uchun ayrim misollar keltiramiz: *bosh oshpaz, do'kon mudiri, rais muovini, xalq yozuvchisi, po'lat quyuvchi, ilmiy kotib, katta laborant.*

O'zbek tilida *bosh* leksemasining semalaridan biri "boshchilik, rahbarlik qiluvchi eng katta yoki yuqori"dir, shunga ko'ra, birikma shaxs nomlarini hosil qiladi: *bosh vrach, bosh agronom bosh cho'pon* kabi.

2. Uch komponentli birikma shaxs nomlari. O'zbek tilida tarkibi uchta mustaqil ma'noli leksemalarning birikishidan hosil bo'lgan shaxs nomlari ham ko'plab ishlatilayotganligini ta'kidlash lozim. Uch komponentli birikmalardan tashkil topgan shaxs nomlari haqida bir qadar tasavvur hosil qilish uchun ayrim misollar keltiramiz: *katta ilmiy xodim, kichik ilmiy xodim, ilmiy bo'lim mudiri, ichki ishlar vaziri, tashqi ishlar vaziri, xalq maorifi a'lochisi* va b.

Gazetalarda uch komponentli shaxs nomlari tilga olinganligini ko'ramiz: *o'z ishining ustasi; voyaga yetmagan o'smir, prokuratura idorasi xodimi, viloyat hokimi muovini, mashina ta'mirlovchi usta, xayriya jamg'armasi raisi, qo'li epchil yigit, yoshi ulug' inson, tili qisiq yigit, voyaga yetmagan farzand* va b.

Z.Mirahmedova shunday deb yozadi: "Shuni alohida qayd etish lozimki, ikki komponentli terminlar miqdori ko'pligi bilan birga, komponentlarning o'zaro birikishi usul va vositalari jihatidan xilma-xilligi bilan ham alohida ajralib turadi. Shunga ko'ra, shunday birikma terminlar xususida alohida to'xtab o'tish lozim deb topdik. Chunki, ularning o'zaro birikish qonun-qoidalari va boshqa omillar ayon bo'lganidan keyin uch va undan ortiq komponentli birikma terminlar haqida ayni shu qabilda so'z yuritishga hojat qolmaydi"²¹.

²¹ Z.Mirahmedova. Hozirgi o'zbek tilining anatomik terminologiyasi: Filol.fanlari nomzodi...diss. –T., 1994, 98-b.

Bu fikr bevosita birikmalardan iborat shaxs nomlariga ham taalluqlidir. Bunday nominatsiyalarning nihoyatda ko'pligini ularning o'zaro birikish xususiyatlarining o'ziga xosligi va xilma-xilligi kabi qator omillarni e'tiborga olib, quyida ikki mustaqil ma'noli leksemalardan tarkib topgan shaxs nomlari haqida alohida to'xtab o'tish lozim deb topildi.

O'zbek tilida ikki mustaqil leksema, aniqroq qilib aytganda, ergash leksema bilan bosh leksemaning grammatik vositasiz, ya'ni faqat ma'noviy jihatdan bir-biri bilan birikuvi natijasida bitishuvli birikmalarning hosil bo'lishini yaxshi bilamiz. To'plangan materiallar tahlilidan ona tilimizning shaxsga aloqador nominatsiyalarining bir qismi ayni shunday usul bilan hosil qilinganligi ma'lum bo'ldi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, birikmali shaxs nomlarini til materialiga ko'ra, ikki guruhga ajratish mumkin:

1. "ot + ot" qolipidagi birikmalar
2. "sifat + ot" qolipidagi birikmalar.

"Ot + ot" qolipidagi birikmalar. Mana shunday shaxs nomlari jumlasiga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: *vakil ota* (to'yni boshqaruvchi shaxs), *rais bobo (buva)*, *to'y bola*, *odam Ato*, *og'zi katta*, *hokim bobo* va boshqalar.

Moslashuvli birikmalar. Birikmalarning bu turida birinchi komponent ikkinchi komponent bilan qaratqich kelishigi qo'shimchasi (-ning) vositasida birikadi: *mening bog'im*, *uning uyi*, *ularning hovlisi* kabi. Bunday birikmalar erkinligi bilan ajralib turadi. Ona tilimiz qonun-qoidalariga muvofiq keladigan moslashuvli birikmalarning qaratqich kelishigisiz shakli ham mavjudligini alohida ta'kidlab o'tamiz: *Respublika Prezidenti*, *bog' qorovuli*, *ro'zg'or boshlig'i*, *politsiya izquvari*, *komissiya boshlig'i*, *direktor o'rinbosari*, *yig'ilish kotibi*, *magazin mudiri*, *qishloq oqsoqoli*, *mahalla raisi*, *militsiya mayyori*, *idora xodimi*, *kino yulduzi*, *qoramol o'g'risi*, *ko'cha bolasi*, *litsey o'quvchisi*, *institut talabasi*, *futbol o'yinchisi*.

2. "Tub sifat + ot" qolipidagi birikmlar. Avvalo ta'kidlash kerakki, shunday qolip asosida yasalgan shaxs nomlarining birinchi komponenti tub (ya'ni yasama

emas) sifatlardan yoxud sifatlashgan otlardan iborat bo'ladi, fikrimizning dalili uchun misollar keltiramiz:

a) Tub sifatli birikmalar: *katta o'qituvchi, kekxa ayol, qalin do'st, o'gay ona (o'g'il, qiz), to'ng'ich bola, oddiy askar, erka bola, qarshi quda, boy odam, buyuk shaxs, katta xotin, katta o'g'il* va boshqalar.

b) sifatlashgan otli birikmalar: *askar bola, kelin bola, o'g'il bola, qiz bola, erkak kishi, bosh murabbiy*. Shu o'rinda bir dalilga e'tibor berish lozimligini qayd etmoqchimiz. Bu shundan iboratki, shaxs nomlarini ifodalashda ayrim sifatlar yoxud sifatlashgan otlar yordamida yuqoridagi kabi o'nlab birikma nominatsiyalarni hosil qilish mumkin ekan. Masalan, *katta* leksemasi quyidagi shaxs nomlari tarkibida keladi: *katta murabbiy, katta laborant, katta xotin, katta olim, katta jamoa*.

3."Yasama sifat + ot" qolipidagi birikmalar. To'plangan materiallarga murojaat etilganda, shaxs nomlarini ifodalash maqsadida birinchi komponent yasama sifatlardan tashkil topgan birikmalardan ham keng foydalanilayotganligi ma'lum bo'ldi.

Ma'lumki, o'zbek tilida sifatlarning yasaliishida ko'plab affikslar yohud prefikslar ishtirok etadi. Jumladan, Z.Ma'rufov 27 ta²², J.Muxtorov 40 ta²³, A. Hojiyev 45 ta²⁴, sifat yasovchilar haqida so'z yuritishgan. Ona tilimizda iste'molda bo'lgan "**yasama sifat va ot**" qolipli shaxs nomlarining yasaliishida quyidagi sifat yasovchi elementlarning ishtirok etganligi ma'lum bo'ldi:

1.Birinchi komponentli –li affiksli sifatlar ishtirokida quyidagi birikma shaxs nomlari yasalgan: *bolali ayol, ma'lumotli xotin, qo'shxotinli er, o'qimishli ishchi, hurmatli o'rtoq, aqlli bola, intizomli o'quvchi, mulohazali olim, g'ayratli kishi, iqtidorli yoshlar, "Shavkatli ritsar Ayvengo haqida qissa"; Aqlli kishilarning sadag'asi ketsang ham arziydi; Qadrdon dalalar, mehnat tongidan qo'lga-qo'l*

²² Ma'rufov Z. So'z sostavi. Ot va sifat.- T. : O'quvpeddavnashr, 1956. 56-60- betlar, shunisi borki, mazkur ishda – ik, -iv, -l (-al), –ion kabi ruscha sifat yasovchilarning o'zbekcha shakllari ham o'zbek tilining sifat yasovchi qo'shimchalari qatoriga qo'shib yuborilgan.

²³ Muxtorov J. So'z yasaliishi // U. Tursunov, J.Muxtorov. Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- T., 1980. - B.220-225.

²⁴ Hojiyev A. O'zbek tilida so'z yasaliishi.- T.: O'qituvchi. 1989. – B. 51- 76.

beradi, ikki *baxtli yosh*; Barvasta *bo'yli kishi* chiqdi: “kim” deb hol so'rab; Elmurod, Gulsum, Davlatyor kabi *viydonli odamlarning* hayotlari yorug' va o'zlari chinakam baxtiyor bo'lmoqlari uchun qanday choralar bor, deb o'ylaydi va boshqalar.

2. Aniqllovchi komponenti –siz affiksli sifatlar ishtirokida birikma shaxs nomlari hosil qilingan. Pirovardida, asosdan anglashilgan narsaga ega bo'lmagan, narsasi, holati kam bo'lgan ma'noli, shuningdek, salbiy xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs ma'noli birikmalar qo'llab kelinmoqda. Masalan: *axloqsiz bola, adabsiz kishi, bolasiz xotin, pulsiz odam, ishsiz kishi, tajribasiz xodim*.

Otabek o'zini nechog'lik bosib ushlab kelgan bo'lsa ham, lekin endi ichidan qaynab toshib ketgan hissiyotini bosolmadi “viydonsiz to'ng'iz²⁵” dedi-da, ixtiyorsiz o'rnidan turib ketdi va b.

3. -chi (-vchi) affiksi ishtirokida yasalgan sifatlar ham shaxsga aloqador birikmalar hosil qilganligini quyidagi misollar yaqqol tasdiqlaydi: *bahonachi odam, qiziqchi ayol, ko'chmanchi qabila, a'lochi o'quvchi, to'quvchi ayol* va b.

Ma'lumki, gazetaning jamoatchi muxbirlar bilan aloqasi mustahkamlashib borgan sari sahifalar shunchalik rang-barang va o'qimishli chiqadi va b.

4. -iy, (-viy) affiksi (asli arab tilidan) yordamida yasalgan sifatlar mustaqil ma'noli ko'pincha mavhum otlarga qo'shilib, shaxs otlarini yasashga xizmat qiladi. Masalan: *afsonaviy qahramon, jismoniy tarbiya, azaliy raqib, madaniy odam, tibbiy hamshira: Umuman ijodiy jamoangiz beparvolikka bormasdan, doim izlanishdaligi har bir sonda ko'rinib turadi. Yo'lda harbiy askar ortgan mashinalarning keti qariyb uzilmas edi* va b.

Misollardan ma'lum bo'lmoqdaki, -iy (-viy) affiksli birikmalar tarkibida shaxsga aloqador nomlarni yasash uchun o'ziga xos bir vazifani ham bajarib kelmoqda. Bunday holat o'zbek tilshunosligida qayd etilmaganligini ham ta'kidlab o'tamiz.

bo- prefiksi (asli fors-tojik tillaridan) yordamida yuzaga kelgan shaxs nomlari; *beadab qiz* (bunday *beadab qiz* yetti iqlimda ham topilmaydi).

²⁵ Bu o'rinda metafora vositasida “viydoni yo'q, viydonga ega bo'lmagan kishi” ma'noli shaxs nomi yasalgan.

no- prefiksi (asli fors-tojik tillaridan) yordamida yasash asosini anglatgan belgiga ega emaslik, zid, qarama-qarshi holatlar, xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs ma'nolarini ifodalovchi birikmalar tarkibi keladi. Masalan: *noinsof qassob, nomard yigit, nmunosib nomzod, noshukur banda, notanish shaxs, noahil oila, nopok odam, norozi aholi, nosog' qariya, nohaq janjalkash*.

Ta'kidlash lozimki, o'zbek tilida qayd etilganlardan tashqari, ikki komponentli shaxs nomlarining birinchi komponenti yana xilma-xil affikslar bilan yasalgan qator birikmalar mavjud.

a) –q affiksi bilan: vaysaqi odam, yig'loqi bola;

b) –gin (-g'in, -kin, -qun kabi variantlar bilan) affiksi: sotqin odam, ozg'in bola; Yasovul tovush chiqqan tomoniga qarab, yugurib kelayotgan bir qizni ko'rdi va yuzini tutqun yigitga o'girib: - Sening noming Yodgormi, - deb so'radi;

v) –choq (-chiq, -chaq) affiksi: tortinchoq bola, qizg'anchiq odam, yalinchoq boyvachcha: Qayerda erinchoq odam paydo bo'lsa, o'sha yerda ish buzuqilik boshlanadi.

g) –chan (-chang) affiksi: talabchan shaxs, o'ychan bola, biluvcha talaba: Mazkur o'rtoq juda ko'ngilchan odam, bu mas'ul postga esa qattiq qo'l kishi kerak;

d) –chil affiksi: izchil demokrat, dardchil bola; U endi epchil sportchi bo'lib qolibdi;

e) –g'ir (-kir,-g'ir, -qir, -qur) affiksi: olg'ir savdogar, topg'ir odam; Ahmad Xusayn voqeani yashirishni istamadi. Baribir uning sezgir dadasi mana hozir kelib, butun sirni ochishga uni majbur etadi;

j) –ka, -q affiksi: qoloq o'quvchi, quvnoq bola;

z) –i affiksi: chapani yigit;

i) –qoq affiksi: urushqoq bola, tirishqoq o'quvchi, qochqoq o'g'ri;

k) –ag'on affiksi: bilag'on o'quvchi, chopag'on sportchi;

l) –aki affiksi : jizzaki bola, shartaki yigit;

m) –parvar affiksi: vatanparvar shoir, odamparvar inson;

n) –kor (-gar) affiksi: da'vogar shaxs, ig'vogar odam, fidokor jangchi;

- o) –mand affiksi: ayolmand erkak, ixlosmand talaba, hunarmand kishi;
- p) – parast affiksi: mansabparast odam;
- r) –dor affiksi: puldor biznesman, yelkador yigit, qarzdor kishi;
- s) –namo affiksi: olimnamo talaba;
- t) –kash affiksi: dilkash odam, hazilkash yigit, jafokash dehqon va boshqalar.

Alohida ta’kidlash kerakki, keltirilgan barcha misollarda birikmalarning birinchi komponenti mustaqil ravishda ham shaxs otlarini ifodalay olaveradi. Bunday holat ular substantivatsiyalashgan vaqtdagina ro’y beradiki, bu haqda mazkur ishimizning keyingi bobida alohida to’xtalib o’tamiz.

Tarkibida aniqrog’i, komponentida frazema mavjud bo’lgan birikma haqidagi shaxs nomlarini ham bemalol ikki komponentli birikmalar qatoriga qo’yish mumkin. Avvalo quyidagi misollarga e’tibor beraylik:

a) **qora yurak** *dushmanning mash’um changali sevikli do’stimiz, mehribon otamiz bizning qo’rqmas jo’rxonimizni oramizdan yulib oldi;*

b) *Ey qanaqa go’l odamsan o’zing. Bektemirov* **ilonning yog’ini yalagan odam.**

Yuzaki qaraganda, yangi leksemalar miqdoriga qaraganda birinchi misolda sifatlovchi komponent ikkita, ikkinchi misolda esa uchta leksemadan iborat bo’lganligi uchun ikki komponentli birikma hisoblanadi.

Demak, birikma tarkibidagi frazema nechta leksemadan iborat bo’lishidan qat’iy nazar, birikmaning bitta komponenti hisoblanaveradi.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etish lozimki, “frazema + leksema” qolipli ikki komponentli birikmalar ona tilimizda nihoyatda ko’pligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

To’plangan materiallar tahlilida frazemali birikma shaklidagi shaxs nomlarining birinchi komponenti, ya’ni sifatlovchi til materialiga ko’ra, birinchidan, birikmaga teng ikkinchidan, gapga teng bo’lishi mumkinligi aniqlandi. Gap shundaki, ham og’zaki, ham yozma nutqda bir xil leksemalardan tarkib topgan ikki xil ko’rinishdagi frazemalar qo’llanaveradi. Quyidagi misollarni qiyoslab

ko'raylik: 1) *qizga o'zbek qishlog'ining sodda hayoti, oq ko'ngil* odamlari juda yoqdi. 2) *ko'ngli oq* odamning sadag'asi bo'lay deyman.

Misollardan *oq ko'ngil* frazemasini birikmaga, *ko'ngli oq* esa gapga teng bo'lib, ayni bir xil ma'noni, ya'ni shaxsning "yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaydigan" ma'noli xususiyatini ifodalab kelayotganligini aniqlash qiyin emas.

Tub leksema	Yasama leksema
Bu gal O'zbekistonlik <i>polvonlar</i> ²⁶ yuzni yerga qaratishmadi: umumkomandada ikkinchi o'rinni egallashdi.	Ikkovi go'yo usta <i>kurashchilarday</i> bellarini egib, bo'yinlarini bir-birining yelkasiga qo'yganlari holda ayiqday tebranishib davrani aylandilar.
Kim eding ?	
Kimsasiz bir yetim, birovning eshigiga bir <i>malay</i> eding, - dedi Dilmurod o'z-o'ziga; Ikki boyga bir malay;	(Qodirjon): Bu <i>xizmatkor</i> ³⁰ , battollar qaysi yerda qoldi ekan? Vaqt ham ancha bo'ldi.
<i>Tul</i> . Eri yoki xotini o'lib yolg'iz qolgan; beva, yesir ²⁷ ...	<i>Beva</i> . Eri yoki xotini o'lgan; tul...
<i>Gadoy</i> ²⁸ . Tilanchilik bilan kun kechiradigan odam; tilanchi.	<i>Tilanchi</i> . Kishilardan biror narsa tilab tirikchilik qiluvchi; gadoy.
	<i>Sehrgar</i> . Sehr qiluvchi, afsunkor, jodugar.
<i>Jodugar</i> . Jodi qiluvchi; sehrgar.	<i>Intelligent</i> . Aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi, o'qimishli, zakovatli kishi; ziyoli.
<i>Ziyoli</i> . Bilim – ma'rifatli kishi; intelligent.	<i>Reformator</i> . Reforma qiluvchi, isloh qiluvchi, maslahatchi.
<i>Islohotchi</i> . Islohot tarafdori; reformator.	

²⁶ Mazkur leksemaning "jismoniy jihatdan kuchli, baquvvat kishi" (o'zbek tilining izohli lug'ati) ma'nosi ham borki, endi u shu ma'nosi orqali pahlavon, bahodir singari lug'aviy birliklar bilan sinonimligi

²⁷ O'zbek tilining izohli lug'atining o'zida *yesir* leksemasiga berilgan izoh ("eri o'lgan, ersiz qolgan xotin")dan uning *tul* lug'aviy birligi bilan sinonim bo'la olmasligi shundoqqina payqalib turibdi. Boz ustiga, ayni shu *yesir* leksemasiga sinonim ham izohning o'ziga "oppozitsiyachi" bo'lib qolgan.

²⁸ O'zbek tilining izohli lug'atida bu leksemaning *gado* (1-ma'nosida) varianti ham borligi izoh etilgan.

³⁰ *Malay-xizmatkor* qabilidagi sinonimlar qatoriga *xizmatchi* varianti ham qo'shiladi.

<i>Yo'ltosar</i>. Yo'lovchilarni to'sib, ularni talaydigan bosmachi; qaroqchi. <i>Dardchil</i>. Tez-tez kasal bo'lib turadigan, salga kasal bo'laveradigan; dard tortib zaiflashib qolgan, dardga chalingan. <i>Ijarachi</i> (2-ma'nosida) Birovning uyida ijarada o'tiruvchi kishi. <i>Kosagul</i>²⁹. O'tirishda ichkilik qiluvchi va o'tirishni boshqarib turuvchi shaxs; soqiy. <i>Fazogir</i>. Fazoni zabt etuvchi. <i>Kotib</i> (1-ma'nosida). Ro'yxat tuzish, qo'lyozmalarni ko'chirish bilan shug'ullangan shaxs; mirza. <i>Kunchi</i> (1-ma'nosida). Hasad, ko'rolmaslik hissi kuchli; hasadchi. <i>Dalla</i>. Qo'shmachilik bilan shug'ullanuvchi, qo'shmachi.	<i>Qaroqchi</i>. Yo'ltosar, bosqinchi. <i>Kasalmand</i>. Tez-tez kasal bo'lib turadigan; dardchil. <i>Kvartirant</i>. Kvartira yoki umuman yashash joyini ijaraga olib turgan kishi. <i>Soqiy</i>. May quyuvchi; kosagul. <i>Kosmonavt</i>. Kosmik kemada kosmosga uchuvchi, kosmosga parvoz qiluvchi kishi. <i>Mirza</i> (1-ma'nosida). YOzuv-chizuv ishlarini olib borgan lavozimli kishi; kotib. <i>Hasadchi</i>. Kimsaning muvaffaqiyatini, ustunligini ko'rolmovchi, hasad qiluvchi; rashk etuvchi; Hasadgo'y. <i>Qo'shmachi</i>. Begona ayol bilan begona kishining uchrashuviga vositachilik qilib kun ko'ruvchi odam; dalla.
--	--

²⁹ Lug'atda *kosagul* va *soqiy* leksemalari sinonim sifatida berilgan; O'tirishlarda, ziyofatda ichkilik quyib tost aytuvchi; soqiy, kosagul.

XULOSA

Mavzuga tegishli ishlarning qisqacha tahlilidan, asosan, shaxs otlarining leksik semantik- guruhlarini o'rganish, ularni ichki tasnif asosida tahlil etish kabi masalalarga e'tibor berilganligi ma'lum bo'ldi, deb o'ylaymiz. Natijada shaxs otlari mikromaydoni tarkibida kishiga xos bo'lgan jismoniy va fiziologik xususiyatlar, emotsional hissiy holatlar, fikrlash va dunyoqarash xarakteri, fikrlash usullari, did-farosat, odat, bilim, xulq-atvor, vazifa, mashg'ulot, turlicha aloqalar vaziyat bilan bog'liq xususiyat, borliqqa munosabat va shu kabi qator belgilar atroflicha namoyon bo'lishi mumkinligi aniqlandi.

Shuningdek, manbalarda shaxs nomlarining yasalish usul vositalari, ularning genetik asoslari ham batafsil tadqiq etilganligini qayd etib o'tdik. Yuqorida shaxs otlari leksikaning yirik bir tarkibiy qismi ekanligi haqida so'z yuritilgan edi. Bunday so'zlar miqdorining ko'pligi bilangina emas, balki mavzu guruhlarining nihoyatda keng qamrovliligi, yasalish usullarining xilma-xilligi bilan ham alohida ajralib turadi. Mana shunday turlar jumlasidan, "yakka shaxs nomlari", "jinsiy farqlanuvchi shaxs nomlari" kabi tushunchalar kiradi. Tabiiyki, bular haqida so'z yuritilmay, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib bermay shaxs otlarining leksikografik talqini haqida fikr bildirish qiyin. Shuningdek, shaxs otlarining qo'llanish doirasini aniqlash o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Lisoniy dalillariga murojaat qilinar ekan, ona tilimizda ikki va undan ortiq bo'lib, "bir guruh yoki to'daga birlashgan", aniqroq qilib aytganda, "ko'pchilikdan iborat shaxslar" ma'nolarini reallashtirish uchun maxsus leksemalardan foydalanilayotganligini ko'rish mumkin.

O'zbek tili leksikasida guruhiy shaxs nomlarini ifodalovchi leksemalarning o'ziga xos o'rni bor. Miqdoran anchagina qismni tashkil etgan shunday lug'aviy birliklarning mavjudligi, ularning o'ziga xos yasalish usullari, leksik-semantik xususiyatlarga ega ekanligi shundan dalolat beradi. Bunday leksik qatlam "guruhiy

shaxs nomlari” tarzida ataladi va biz ham shu nom ostida o’rgandik. Zero, “yakka shaxs” tushunchasi bor ekan, tabiiy ravishda, “guruhiy shaxs” tushunchasi ham mavjud bo’ladi.

Ishda, asosan, shaxs otlarining leksik-semantik guruhlarini o’rganilib, ular ichki tasnif asosida tahlil etilgan. Shaxs otlarining o’zbek tilining ikki tomli izohli lug’atida izohlanishi, sinonim va variantlarining izohidagi kamchiliklari tahlil etilgan va ayrimlari yangi izohli lug’atlardagi ma’nosi orqali ko’rsatilgan. Shaxs otlari ham tuzilishiga ko’ra uch xil ekanligini tavsif etilgan. Bular quyidagilar: a) sodda shaxs nomlari; b) qo’shma shaxs nomlari; v) juft shaxs nomlari; g) birikma shaxs nomlari.

O’zbek tilining ikki tomli izohli lug’atidagi shaxs otlari izohlari o’ziga xos bir muammo ekanligi tasnif etilgan. Shunga ko’ra, qayd etilgan masalalarda shaxs nomlari sinonimiyasi, shaxs otlarining variantdorligi, ayrim shaxs otlari izohi tadqiq qilingan. Shuningdek, shaxslar otlari izohining aniqlovchi komponentidagi xilma-xilliklar haqida so’z yuritilgan.

Tilimizda tarkibida yasovchi elementlari xilma-xil bo’lgan va juft hamda qo’shma va birikma shaklidagi shaxs otlari qaror topgan. O’zbek tilining izohli lug’atida variantdor shaxs otlarining berilish va izohlanishi ko’rsatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. -Toshkent.: O`zbekiston, 1994.
2. Doniyarov R. Nauchno-texnicheskiye terminy – slovosochitaniya i voprosy ix uporyadocheniya // O'zbek tili ilmiy texnikaviy terminologiyasini tartibga solish prinsiplari. –T.: 1991. –B. 74-184.
3. Ismoilov I. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. T., 1966.
4. Kасымов A. Farmatsevticheskaya terminologiya v sovremennom uzbekskom yazыke: AKD filol. nauk. –T.: 1982.
5. Ma'rufov Z. So'z sostavi. Ot va sifat.- T. : O'quvpeddavnashr, 1956.
6. Madvaliyev A.P. Uzbekskaya ximicheskaya terminologiya i voprosy yeyo normalizatsii: AKD filol.nauk. –T.: 1986.
7. Mirahmedova Z. Hozirgi o'zbek tilining anatomik terminologiyasi: Filol.fanlari nomzodi... diss. –T., 1994.
8. Mo'minova A.K. O'zbek tilida mansab va unvon nomlarining leksik-semantik tarkibi: Filol.fanlari nomzodi ... diss. avtoref. –T., 2000.
9. Muxtorov J. So'z yasalishi // U. Tursunov, J.Muxtorov. Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T., 1980. - B.220-225.
- 10.Tojiyev Yo. O'zbek tilida shaxs otlari yasovchi affikslar. –T.:, 1987.
- 11.Usmon O. Internatsional so'zlar lug'ati. T., 1959.
- 12.Xusanov A. Nazvaniya bolezney i ix simptomov uzbekskom yazыke: AKD filol. nauk -T.: 1981.
- 13.O'zbek tilining izohli lug'ati. 1. -M: Pus tili, 1980.
- 14.O'zbek tilining izohli lug'ati. 2. -M: Pus tili, 1981.
- 15.O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. -T.: O'zME, 2007.
- 16.O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. -T.: O'zME, 2007.
- 17.O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. -T.: O'zME, 2008.

- 18.O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild. -T.: O'zME, 2008.
- 19.Xojiyev A. O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar. -T.:O'z FAN, 1963.
- 20.Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. -T.: O'qituvchi, 1985.
- 21.Hojiyev A. O'zbek tilida so'z yasalishi.- T.: O'qituvchi. 1989. -B. 51- 76.

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI O'ZBEK FILOLOGIYASI
FAKULTETI BITIRUVCHISI SAYFULLAYEVA XURSHIDANING "SHAXS
OTLARINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI " MAVZUSIDAGI BITIRUV
MALAKAVIY ISHIGA

ILMIY RAHBAR XULOSASI

Yurtimizning mustaqillikka erishishi xalqimizning madaniy-ma'naviy hayotida ulkan ijobiy o'zgarishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda milliy o'zligimizni ifoda etuvchi o'zbek tilining tarixini chuqur o'rganish, rivojlantirish yuzasidan ko'plab tadqiqatlar olib borilmoqda. Shuningdek, lingvopoetika sohasini nazariy va amaliy jihatdan ilmiy asoslashga ehtiyoj tug'ildi. Mana shu jihatdan talaba Sayfullayeva Xurshidaning "Shaxs otlarining leksikografik talqini" mavzusidagi ishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ish kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy tavsifida mavzuning dolzarbligi, o'rganilish darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati asoslangan.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida yakka va guruh shaxs nomlari, jinsiy farqlanuvchi shaxs nomlari, shaxs nomlarining qo'llanish doirasi tahlil etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida shaxs otlarining lingvistik tabiati, ikki tomli hamda besh tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da berilishi, tarkibiy tuzilishiga ko'ra turlari tahlil etilgan.

Ishning xulosa qismida mavzu yuzasidan talabaning barcha ilmiy-nazariy xulosalari umumlashtirilib, yakunlangan. Ishda yutuqlar bilan birgalikda uslubiy xatoliklar ham uchraydi. Kelajakdagi izlanishlarda bu jihatlar bartaraf etiladi, degan umiddamiz.

Ilmiy rahbar:

f.f.n. N.Zayniddinova

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI O'ZBEK FILOLOGIYASI
FAKULTETI BITIRUVCHISI SAYFULLAYEVA XURSHIDANING “SHAXS
OTLARINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI ” MAVZUSIDAGI BITIRUV
MALAKAVIY ISHIGA

T A Q R I Z

Bizga ma'lumki, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan so'ng, boshqa qadriyatlar singari o'zbek tilining mavqeyi ham tiklandi, aytish joizki, yuqori pog'onaga ko'tarildi. O'zbek tilining barcha sathlarini tilimiz tarixiga tayanilgan holda yondashish, turli sohalarga doir lug'atlar tuzish boshlandi. O'zbek tili leksikasida mavjud so'zlarning lug'atlarda berilishi ularning miqdor va ma'no jihatdan rang-barangligini ko'rsatadi va ularni lisoniy jihatdan o'rganish talab etiladi. Mana shu jihatdan talaba Sayfullayeva Xurshidaning “Shaxs otlarining leksikografik talqini” mavzusidagi ishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ishda shaxs otlarining lug'atlarda berilish xususiyatlari ochib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki mustaqil bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning kirish qismida ishga doir barcha ilmiy-nazariy ma'lumotlar berilgan.

Ishning birinchi bobi “Shaxs otlarining turlari va qo'llanishi” deb nomlangan bo'lib, bunda shaxs otlari semantik va tuzilish nuqtai nazaridan tahlil etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi “Shaxs otlarining tarkibiy tuzilishiga ko'ra turlari” deb nomlangan bo'lib, unda shaxs otlarining tarkibi o'rganilgan.

Ishning yakunida muayyan ilmiy xulosalar bayon qilingan. Ishda muvaffaqiyatlar bilan birgalikda ba'zi imloviy, uslubiy xatoliklar ham uchraydi. Ammo ular bitiruv malakaviy ishining qimmatini pasaytirmaydi.

O'zbek filologiyasi fakulteti bitiruvchi kurs talabasi Sayfullayeva Xurshidaning “Shaxs otlarining leksikografik talqini” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini tugallangan talaba tadqiqoti sifatida ijobiy baholayman.

Taqrizchi:

p.f.n.H.Suyunov